

**2025-2026-O'QUV YILIDA  
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**

**11-SINF**

**O'QUVCHILARI UCHUN**

**O'ZBEKISTON TARIXI**

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI**

**O'TKAZISH BO'YICHA**

**METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**MAJBURIY  
FANLAR**

**2025-2026-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM  
MAKTABLARINING 11 - SINFI O‘QUVCHILARI UCHUN O‘ZBEKISTON  
TARIXI FANIDAN YAKUNIY NAZORATIDA FOYDALANILADIGAN  
TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Ushbu spetsifikatsiya umumta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilarini O‘zbekiston tarixi fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

**I. Umumiy tamoyillar**

Baholash maqsadi – 11-sinf o‘quvchilarining O‘zbekiston tarixi fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

**II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli buyruqi bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom
2. O‘zbekiston tarixi fanidan 6-11-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyruqi.

**III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt**

O‘quvchilari uchun O‘zbekiston tarixi fani bilish darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 test topshirig‘i taqdim etiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun **180 daqiqa** vaqt berilgan. Test topshiriqlarining mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Konstruktlar	Testlar soni
		20
<b>Qadimgi dunyo tarixi</b>	<p>–qadimgi davr, qadimgi odamlar, ularning diniy e’tiqodlari, ixtirolari va qadimgi manzilgohlarining tasnifini topish;</p> <p>– O’rta Osiyoda yangi dinning vujudga kelishi, qadimgi elatlar va ular tomonidan asos solingan davlatlarga doir ma’lumotlarni o‘xshash va farqli jihatlarini topish;</p> <p>– yurtimizda dastlab ahamoniylar, keyinchalik Makedoniya davlatining hukmronligini o‘rnatishi hamda uning ta’sirida yuz bergan voqealarni ajrata olish;</p> <p>– mil.avv. IV asr – mil. III asrlarda mavjud bo‘lgan O’rta Osiyo davlatlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash.</p>	2
<b>O’rta asrlar tarixi</b>	<p>– O’rta Osiyoda ijtimoiy ahvol, ilk O’rta asrlarda vujudga kelgan davlatlar, mahalliy hokimliklar, o’sha davr madaniy hayoti haqidagi ma’lumotlarni moslashtira olish;</p> <p>– arablarning diyorumizda o‘z hukmronligini o‘rnatishi va buning natijasida Turonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohada ro‘y bergan o‘zgarishlarni taqqoslay olish.</p> <p>– Arablar hukmronligidan keyin O’rta Osiyoda siyosiy ahvol, Xorazmda dastlab, Ma’moniylar hukmronligi, keyinchalik Anushteginiylar saltanati bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash;</p> <p>– Jaloliddin Manguberding qahramonligi, Chig‘atoy ulusi va etnik jarayonlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni ajrata olish va moslashtirish;</p> <p>– Movarounnahr va Xorazmda madaniy hayot: adabiyot, diniy bilimlarning rivoji, me’morchilik, san’at va musiqaga doir ma’lumotlarni o‘zaro farqlab, taqqoslash;</p> <p>– Temuriylar imperiyasining vujudga kelishi, ushbu davlatning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy, madaniy hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlarni taqqoslash;</p> <p>– XIV – XV asrlarda fan va madaniyatning zamonaviy sivilizatsiya rivojida o‘rnini aniqlab, moslashtirish.</p>	3

<p><b>Uch xonlik davri</b></p>	<p>–XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyatni aniqlash;</p> <p>– Buxoro xonligining tashkil topishi, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, harbiy sohalari bilan bog‘liq ma‘lumotlarni ajrata olish.</p> <p>Ashtarxoniylar hukmronligi va Mang‘itlar sulolasining hokimiyatga kelishi, Xiva xonligining tashkil topishi, mazkur davlatlarning ichki va tashqi siyosati, o‘zaro munosabatlari, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlab taqqoslay olish;</p> <p>– Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi, ularning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotini tahlil qilish;</p> <p>– Minglar sulolasining hokimiyatga kelishi, Qo‘qon xonligining ichki va tashqi siyosatiga doir ma‘lumotlarni tahlil qilish va xulosalash.</p>	<p>3</p>
<p><b>O‘zbekiston tarixining XIX asrning o‘rtalaridan – 1917-yilgacha bo‘lgan davri</b></p>	<p>–XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan davlatlarda ro‘y bergan voqealarni tahlil qilish;</p> <p>– Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga bostirib kirishi va hukmronligining o‘rnatilishi, Rossiya mustamlakachilik siyosatiga qarshi xalq harakatlari bilan bog‘liq ma‘lumotlarni aniqlash, xulosalash;</p> <p>– Turkiston general-gubernatorligi, yer-suv hamda sud tizimida amalga oshirilgan islohotlarni aniqlash, tahlil qilish va xulosalash;</p> <p>– XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari va uning kelib chiqish sabablari va natijalarini farqlay olish;</p> <p>– XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning geografik joylashuvi, ularning ijtimoiy hayoti, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilishiga doir ma‘lumotlarining xronologik ketma-ketligini aniqlay olish;</p> <p>– jadidchilik harakatining vujudga kelishi, ularning dasturiy maqsad va vazifalari, jadidchilik harakatining namoyondalari hamda faoliyatiga doir ma‘lumotlarni ajrata olish;</p> <p>–Birinci jahon urushining Turkistonga ta‘siri, urush oqibatlarini aniqlash;</p> <p>– yosh buxoroliklar va yosh xivaliklar faoliyati, Buxoro amirligi, Xiva xonligining tugatilishi, mustamlaka davrida madaniy hayot bilan bog‘liq ma‘lumotlarning tasnifini topish;</p>	<p>4</p>

	<p>–Mustamlaka sharoitida Turkistonda ta’lim tizimi, matbuot, ilm-fan taraqqiyoti, teatr, musiqa, me’morchilik sohasining o’ziga xos xususiyatlarini farqlay olish;</p>	
<p><b>O‘zbekistonning 1917 – 1991-yillar tarixi</b></p>	<p>– Rossiyada 1917-yilgi hokimiyat almashinuvi, uning Turkistondagi ta’siri, Turkistonda sovet hokimiyatining o’rnatilishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni farqlay olish;</p> <p>– Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi va tugatilishi, O’rta Osiyoda olib borilgan milliy istiqloqlilik harakati haqidagi ma’lumotlarni ajrata olish;</p> <p>– O’rta Osiyoda o’tkazilgan hududiy chegaralanish va uning oqibatlari, Sovetlarning Turkistonda amalga oshirgan islohotlari, olib borgan siyosatlariga oid ma’lumotlarni aniqlay olish;</p> <p>– O‘zbekiston SSRda XX asrning 20 – 30-yillarida olib borilgan qatag‘onlik siyosatiga oid ma’lumotlarni farqlay olish;</p> <p>– Ikkinchi jahon urushi, o‘zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari haqidagi ma’lumotlarni aniqlash, ajrata olish;</p> <p>– Birinchi general-mayor Sobir Rahimov faoliyati, urush davrida fan, madaniyatning ahvoli, urushdan keyingi davrda O‘zbekiston SSRning xalq xo‘jaligi bilan bog‘liq ma’lumotlar tasnifini topish;</p> <p>– XX asrning 80-90-yillarida O‘zbekiston SSRda “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” deb nomlangan siyosiy qatag‘onlikning amalga oshirilishi, ateistik targ‘ibotga doir ma’lumotlarni ketma-ketligini aniqlay olish.</p>	<p>4</p>

<p><b>O‘zbekistonning mustaqillik davri (1991 – 2025)</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi, davlat boshqaruv tizimi, fuqarolik jamiyatining shakllanishini aniqlay olish;</li> <li>– Davlatimizning qurolli kuchlari va milliy armiyasining shakllanishi, bu sohada amalga oshirilgan islohotlar tasnifini topish;</li> <li>– milliy iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat va uni amalga oshirish bosqichlarini farqlay olish;</li> <li>– mamlakatda ishlab chiqarish salohiyatining oshishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, millatlaro totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosati, ta’lim va ilm-fan haqidagi ma’lumotlarni aniqlash;</li> <li>– Milliy va diniy qadriyatlar, Buyuk ajdodlar xotirasining tiklanishi, madaniyat va san’at taraqqiyotiga oid ma’lumotlarni farqlay olish;</li> <li>– O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining shakllanishi va ustuvor yo‘nalishi, dunyoning yetakchi mamlakatlar bilan hamkorligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni aniqlash;</li> <li>–O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi, ular bilan hamkorlikda amalga oshirilgan dasturlarni aniqlash.</li> </ul>	<p style="text-align: center;">4</p>
<b>Jami</b>		<b>20</b>

#### IV. Kognitiv ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti

<b>Kognitiv daraja</b>	<b>Izohi</b>	<b>Testlar soni (ta)</b>
<b>Bilish (B)</b>	<p>Bilish darajasidagi, ya’ni reproduktiv topshiriqlar, o‘quvchidan o‘quv materialini qayta ishlamasdan xotirada saqlash va tanish vaziyatlarda qo‘llashni talab qiladi. Bu turdagi topshiriqlar quyidagilarni baholaydi: qonuniyatlar, xossalar, tushunchalar, atamalarning mohiyati va ularni yodda saqlash.</p>	5
<b>Qo‘llash (Q)</b>	<p>Qo‘llash darajasidagi, ya’ni produktiv topshiriqlar, o‘quvchidan o‘rganilgan qonun va qonuniyatlarni berilgan vaziyatga mos ravishda tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo‘llash va umumlashtirish, shuningdek xulosa chiqarishni talab qiladi.</p>	13

<b>Mulohaza qilish (M)</b>	Mulohaza darajasidagi, ya'ni intellektual topshiriqlar, o'quvchidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni ishlatib umumlashtirish va xulosa chiqarish talab qilinadi.	2
----------------------------	---	---

### V. Topshiriq turlari bo'yicha taqsimoti

TOPSHIRIQ TURI	IZOHI	TOPSHIRIQ SONI
Qisqa javobli ochiq test (O1)	savolga qisqa jumla bilan javob berishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	6 ta
Moslashtirish ochiq testi (O2)	savol mazmuniga mos javoblarni moslashtirishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	5 ta
Ko'p tanlovli yopiq test (Y1)	Savol mazmuniga mos bo'lgan javob variantlari ichidan to'g'rilarni topishni talab etadigan yopiq test topshiriqlar	9 ta

### VI. Baholash mezoni va ballni bahoga aylantirish tartibi

O'quvchilarning yozma ishlari yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida maksimum 100 ball bilan baholanadi. Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan. Topshiriqlar mazmuni va qiyinlik darajasi asosida turli xil ball bilan baholanadi. Har bir topshiriqning baholash mezoni baholash formatida berilgan. Quyida ballni bahoga konvertatsiya qilish jadvali keltirilgan:

#### Ballni bahoga aylantirish jadvali

Ball (%)	Baho	Izohi
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a'lo”

### VII. Baholash shakli

O'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bosqichi, baholanadigan mazmun soha, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari quyidagi jadvalda berilgan:

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Baholash mezonlari
<b>1-bosqich</b>				
1.	Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiyasi sari	O1	B	2 ball
2.	Mil.avv. I mingyillikda O'rta Osiyo	O2	Q	6 ball
3.	O'rta asrlarda yerga egalik qilish munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi. Arab xalifaligi davrida Movarounnahr	O2	Q	6 ball
4.	Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Ajdodlarimizning ilmiy merosi abadiyatga daxldor ma'naviy xazina	O2	Q	6 ball
5.	Amir Temur va Temuriylar davri tarixi XIV – XV asrlarda fan va madaniyatning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati...	O2	Q	6 ball
6.	XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat	O2	Q	6 ball
7.	Buxoro xonligi va amirligi Xiva xonligi	O2	Q	6 ball
8.	XVI – XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. XVIII – XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi	O3	M	6 ball
9.	XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati	O3	M	6 ball
10.	XIX asr oxirida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar	O2	Q	6 ball
11.	Jadidlar harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi ta'siri Turkiston va Birinchi jahon urushi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi	O2	Q	6 ball
12.	Mustamlaka sharoitida Turkistonda	O1	B	2 ball



	madaniy hayot			
13.	1917-yilgi fevral, oktyabr voqealari, uning Turkistondagi ta'siri. Turkiston Muxtoriyati, Turkiston ASSR, BXSr, XXSRda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatlar	O2	Q	6 ball
14.	O'rta Osiyoda hududiy chegaralanish. Sovet hokimiyati amalga oshirgan islohotlarning mohiyati. O'zbekistonda sovet hokimiyati yuritgan industrlashtirish va madaniy siyosat	O1	B	2 ball
15.	O'zbekistonda amalga oshirilgan qatag'onlik siyosati. Ikkinchi jahon urushi, o'zbekistonliklarning frontdagi jasorati va qahramonliklari	O2	Q	6 ball
16.	Gvardiyachi general-mayor Sobir Rahimov. O'zbekiston fani va madaniyati g'alaba uchun xizmatda...	O1	B	2 ball
17.	Milliy davlatchilikning tiklanishi	O1	B	2 ball
18.	Iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat. Ta'lim va ilm-fan	O2	Q	6 ball
19.	Ma'naviy va madaniy taraqqiyot. Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat	O2	Q	6 ball
20.	Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik	O2	Q	6 ball
<b>Jami</b>		<b>100 ball</b>		

### **VIII. Imtihon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar**

1. Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy “Yangiyo‘l poligraf servis”, Toshkent-2017.
2. O‘zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. A.Muhammadjonov “Sharq”, Toshkent-2017.
3. O‘zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. U.Jo‘rayev, Q.Usmonov, G.Jo‘rayeva, N.Norqulov, “O‘qituvchi”, Toshkent-2019.
4. O‘zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. S.Tillaboyev, A.Zamonov, “Sharq “, Toshkent-2019.
5. O‘zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. S.Tillaboyev va b. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2022.
6. O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. N. Jo‘rayev, A. Zamonov, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent - 2018.
7. O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. A.Zamonov, O. Abdimo‘minov, va b. Respublika ta’lim markazi, Toshkent-2025.

### 1-savol

1. Chopper mehnat qurollarining kashf etilishi ibtidoiy odamlarning ijtimoiy hayotida qanday ta'sir ko'rsatdi?

I. Odamlar yakka holda yashashni afzal ko'rib, ijtimoiy aloqalar kamaydi.

II. Tabiiy resurslarga ehtiyoj kamayib, ovchilik deyarli to'xtab qoldi.

III. Mehnat faoliyati shakllanib, oziq-ovqat olish imkoniyati kengaydi.

Javob:	
--------	--

Ball:	
-------	--

2. So'nggi paleolit davrida ham muzlik davri davom etib, bunday holat odamlar turmushida qanday o'zgarishga sabab bo'ldi?

I. Odamlar faqat o'simlik yig'ish bilan shug'ullanib, ovchilikdan voz kechdi.

II. Sovuq sharoitiga moslashib, kiyim tikish, turar-joylar qurilishi boshlandi.

III. Chorvachilik asosiy xo'jalik tarmog'iga aylandi.

Javob:	
--------	--

Ball:	
-------	--

3. Neolit davriga kelib Qadimgi Sharq aholisining dehqonchilik bilan shug'ullanishi aholi turmush tarzida qanday o'zgarishlarga olib keldi?

I. O'zlashtiruvchi xo'jalik odamlar uchun asosiy xo'jalik yuritishning asosiy shakliga aylandi.

II. Odamlarda ko'chmanchi hayot tarzi kuchayib, ular yangi hududlarga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi.

III. Odamlar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy yashash joylari shakllandi.

Javob:	
--------	--

Ball:	
-------	--

4. Ibtidoiy odamlarning patriarxatga o'tishi o'sha davr ijtimoiy hayotida qanday o'zgarishga olib keldi?

I. Erkaklar mavqeyi kuchayib, oilada ota tomonidan yaqin qarindoshlarning bir necha avlodlari tashkil topadigan bo'ldi.

II. Ayollar jamiyatdagi barcha yetakchi rolni saqlab qolib, boshqaruv to'liq ularning qo'lga o'tdi.

III. Jamoaviy mulk butunlay yo'qolib, davlat tuzumi va yozma qonunlar tizimi paydo bo'ldi.

Javob:	
--------	--

Ball:	
-------	--

5. Surxon vohasidagi Teshiktosh yodgorligining topilishi O'zbekiston tarixi uchun qanday ahamiyat kasb etdi?

I. Arxeologlar O'zbekiston hududidagi shaharlar yoshini aniqlashda asosiy moddiy manbaga ega bo'lishdi.

II. O'rta Paleolitda O'zbekiston hududida metallurgiya va hunarmandchilik keng rivojlanganligini ko'rsatdi.

III. O‘zbekiston hududida qadimdan ibtidoiy odamlar yashaganligi va ularning madaniyati mavjudligini tasdiqladi.

Javob:	
Ball:	

6. Animizm, totemizm, fetishizm kabi diniy e‘tiqodlarning mavjudligi ibtidoiy odamlar hayotida qanday ahamiyatga ega bo‘lgan?

I. Jamoani birlashtirish va ijtimoiy tartibni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan.

II. Ibtidoiy odamlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lmay, tasodifiy qarash sifatida qolgan.

III. Faqat yakka shaxsning diniy qarashi bo‘lib, jamoaviy hayotga ta‘sir ko‘rsatmagan.

Javob:	
Ball:	

7. Arxeologlar Ko‘lbuloq manzilgohidan ko‘plab tosh qurollar va ibtidoiy odamlarning izlarini aniqladi. Ushbu topilmalar asosida qanday xulosa chiqarish mumkin?

I. Ibtidoiy odamlar yashab, tosh qurollardan foydalanib, mehnat faoliyatini olib borganligini bildiradi.

II. So‘nggi paleolit davridan boshlab ilk davlat boshqaruvi shakllanganligini, yozma qonunlar amal qilganligini bildiradi.

III. Mazkur hududda diniy ibodatxonalar va marosim markazlari shakllanganligidan dalolat beradi.

Javob:	
Ball:	

8. Insoniyat tarixida o‘q-yoylarning kashf etilishi jamiyatning xo‘jalik hayotida qanday ta‘sir ko‘rsatdi?

I. Dehqonchilik asosiy xo‘jalik turi sifatida shakllana boshlaydi.

II. Ovchilik samaradorligi oshib, oziq-ovqat manbalari kengaydi.

III. Ushbu holat, keyinchalik dehqonchilikning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Javob:	
Ball:	

9. Ibtidoiy odamlarda urug‘ jamoasining paydo bo‘lishi o‘sha davr ijtimoiy hayoti uchun qanday oqibatga olib keldi?

I. Odamlar yakka yashashga o‘tib, jamoaviy hayot kechirish o‘zining ahamiyatini yo‘qotdi.

II. Xususiy mulk darhol shakllanib, odamlar hayotida ijtimoiy tabaqalanish keskin kuchaydi.

III. Qon-qarindoshlikka asoslangan jamoa shakllanib, o‘zaro yordam va mehnat taqsimoti kuchaydi.

Javob:	
Ball:	

10. Quyidagilardan qaysi biri Eneolit davrida kulolchilik rivojlanganligidan dalolat beradi?

I. Pishirilgan sopol idishlarning keng qo'llanilishi.

II. Yerga ishlov berishda mikrolitlardan keng foydalanish.

III. Mehnat qurollarining aksariyati sopoldan yasalishi.

Javob:	
Ball:	

## 2-savol

1. Quyidagi ma'lumotlarning qaysi biri zardushtiylikka oid emas?

I. Diniy marosimlar ochiq osmon ostida, gulxan yonida yoki uydagi o'choq olovi atrofida o'tkazilgan.

II. Zardusht va'zlari matnlarining hammasi mil. avv. IX – VIII asrlarda 21 ta kitobda jamlangan.

III. Mitra o'tli chaqmoqlar yordamida yovuzlik va o'lim xudosi bo'lmish Ahriman bilan jang qiladi.

IV. Mazkur dinda insonning asosiy burchi eng avvalo adolatli turmush tarzi hisoblangan.

Javob:					
Ball:					

2. Quyidagilardan saklarning ikkinchi guruhi bilan bog'liq to'g'ri javoblarni aniqlang.

I. Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar.

II. Saka-xaumovarka ya'ni muqaddas ichimlikka sig'inuvchi saklar deb nomlangan.

III. O'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan.

IV. Toshkent viloyati va janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar.

Javob:					
Ball:					

3. Quyidagi ma'lumotlardan qaysi biri ahamoniylarning O'rta Osiyoga qarshi harbiy yurishi bilan bog'liq emas.

I. Saklardan chiqqan cho'pon yigit – Shiroq ahamoniylar hukmdori Doro I ga qarshi kurash olib borgan.

II. Sug'diyonada Spitaman boshchiligida yirik qo'zg'olon ko'tarildi.

III. Doro I hukmronligining uchinchi yilida saklar ustiga yurish qildi.

IV. Kir II massagetlar malikasi To'maris bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi.

Javob:					
Ball:					

4. Makedoniyalik Aleksandr bilan bog'liq bo'lmagan javobni toping.

I. Mil. avv. 329-yilda Maroqandani egalladi.

II. Saklarga qarshi kurashish uchun Aleksandriya Esxatani bunyod ettirdi.

**III.** «Politimet» (Zarafshon) daryosi bo'yida Spitaman askarlarini qirib tashladi.

**IV.** Mil.avv. 328-yil kuzida Spitamen bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tdi.

Javob:					
Ball:					

5. Quyidagilardan Salavkiylar davlati bilan bog'liq bo'lmagan javobni aniqlang.

**I.** Davlat tarkibiga kirgan O'rta Osiyo satrapliklarga ajratilgan.

**II.** Mil.avv. 323-yilda Salavk Bobil hukmdori bo'lgan.

**III.** Salavkning o'g'li Antiox Sharqiy viloyatlar noibi etib tayinlangan.

**IV.** Davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan strateg shug'ullangan.

Javob:					
Ball:					

6. Qadimgi Xorazm davlati bilan bog'liq ma'lumotni aniqlang.

**I.** Hokimiyat Mitridat I qo'lga o'tishi bilan Xorazmga harbiy tazyiq kuchaygan.

**II.** Mil. avv. III asr o'rtalarida Salavkiylar davlatidan ajralib chiqqan.

**III.** Aholisi VIII asrga qadar mahalliy taqvimdan foydalanishgan.

**IV.** Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Kushon podsholigiga qo'shib olingan.

Javob:					
Ball:					

7. Quyidagi ma'lumotlardan Qang' davlati bilan bog'liq bo'lmaganini toping.

**I.** Toshkentda o'troq ziroatchilik va hunarmandchilik madaniyati vujudga kelgan.

**II.** Sho'robashat, Uchqo'rg'on singari davlat markazlari gullab-yashnagan.

**III.** Asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan.

**IV.** Mil. avv. II asrda qudratli davlat birlashmasiga aylangan.

Javob:					
Ball:					

8. Quyidagilardan Kanishka davrida sodir bo'lmagan ma'lumotni aniqlang.

**I.** Uning hukmronli davrida Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishdi.

**II.** Davlatda yangi-yangi shaharlar bunyod etildi.

**III.** Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi.

**IV.** Afg'oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo'shib olindi.

Javob:					
Ball:					

9. "Buyuk meridional yo'l" bilan bog'liq nomuvofiq javobni toping.

**I.** Savdo yo'lining uzunligi 12 kilometrni tashkil etgan.

**II.** Sariq dengizi sohilidan boshlanib, O'rtayer dengizi sohiligacha borgan.

**III.** Hindistondan O'rta Osiyo viloyatlariga ip-gazlama va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan.

**IV.** Mazkur savdo yo'li 18 asr davomida faoliyat ko'rsatgan.

Javob:					
Ball:					

10. Kushon podsholigida oromiy yozuvi keng tarqalishining sababini aniqlang.

I. Mil.avv. II – I asrlarda oromiylar hududining egallanishi.

II. Aholining o‘zaro madaniy va savdo aloqalari.

III. Mil.avv. II asrda oddiy xalq bolalari uchun maktablarning tashkil etilishi.

IV. Kushon podshosining oromiylar malikasiga uylanishi.

Javob:					
Ball:					

### 3-savol

1. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Xorazm</b>  <b>II. Kidariylar</b>	A	O‘rta Osiyoda 120 yildan oshiqroq faoliyat yuritgan.
	B	Hukmdori dastlab “malikshoh”, keyinchalik “yabg‘u” nomi bilan atalgan.
	C	Burgut va lochin davlatda hukmronlik ramzi hisoblangan.
	D	Eftallardan mag‘lubiyatga uchragach, Shimoliy Hindistonga chekinib, u yerda 75 yil hukmronlik qilishgan.

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

2. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Istami</b>  <b>II. To‘ng yabg‘u</b>	A	Boshqaruv tartibini isloh qilib, mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning “yabg‘u” unvoni berilgan.
	B	Turklarning g‘arbga tomon yurishlariga boshchilik qilgan.
	C	Abruy qo‘zg‘olonini bostirib, kadivar va xizmatkorlarni o‘z xo‘jayinlariga qaytargan.
	D	Oltoy va Janubiy Sibirda Turk xoqonligiga asos solgan.

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

3. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Kidariylar – sosoniylar</b>	A	456-yilda o‘zaro elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘yishadi.
	B	Ikki davlat o‘rtasidagi urush Pero‘zning halokati bilan tugagan.

<b>II. Eftallar – sosoniylar</b>	C	VII asrning birinchi yarmida to‘qqiz marotaba savdo elchilari yuboriladi.
	D	456-yilda davlatlar o‘rtasidagi to‘qnashuv sodir bo‘lgan.

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

4. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Buxoro</b>	A	710-yilda Qutayba ibn Muslim tomonidan fath etilgan.
	B	Abruy boshchiligida Turk xoqonligiga qarshi qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tgan.
<b>II. Samarqand</b>	C	718-yilda mazkur shahardan hadya tariqasida Xitoyga dubulg‘a yuborilgan.
	D	651-yilda arablarga jangsiz taslim bo‘lgan shahar hisoblanadi.

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

5. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Vazir ul-vuzaro</b>	A	Xalifalikda harbiy ishlar uchun mas‘ul bo‘lgan amaldor.
	B	Asosiy vazifasi vaqfdan keladigan daromadni taqsimlagan.
<b>II. Amir ul-umaro</b>	C	Hukmdor farmonlarni quyi tabaqaga yetkazish bilan shug‘ullangan.
	D	Arab xalifaligida davlat boshqaruvida asosiy o‘rinda turuvchi ulug‘ vazir.

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

6. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Sug‘d hokimligi</b>	A	Hokimlik aholisi budda diniga e‘tiqod qilgan.
	B	Qo‘shni mamlakatlarga asosan bo‘yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.
<b>II. Toxariston hokimligi</b>	C	Mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi bo‘lib, aholi gavjum yashagan.
	D	Hokim “tudun” nomi bilan yuritilib, markazi Tunkat shahri bo‘lgan.



	I	II
Javob		
Ball:		

7. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Eftal yozuvi</b>	A	Baqtriya yozuvi asosida shakllangan bo'lib, 25 harfdan iborat bo'lgan
	B	Mazkur yozuv tosh va yog'ochlarga o'yib yozishda nihoyatda qulay bo'lib, biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38–40 harfdan iborat edi
<b>II. Turkiy run xati</b>	C	Ushbu yozuv namunalari Panjikent yaqinidagi Mug'qal'asi, Sharqiy Turkistondagi Turfan shahri yaqinida saqlanib qolingan
	D	Oromiy yozuvi asosida shakllangan bo'lib, asosan Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida keng tarqalgan

	I	II
Javob		
Ball:		

8. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Moniylik dini</b>	A	Koinotni yo'qlik bor qilgan Ko'k tangriga e'tiqod qiluvchi yakka xudolik dini hisoblangan
	B	Ushbu dinga taalluqli ibodatxonalar Afg'onistondagi Surxko'tal manzilgohida saqlangan
<b>II. Shomonlik dini</b>	C	Diniy ta'limot bo'yicha olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi – yorug'lik va ezgulik, zulmat va yovuzlikdan iborat
	D	Xorazmdagi Oybo'yirqal'ada ushbu dinning ibodatxonasi joylashgan

	I	II
Javob		
Ball:		

9. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Nasr ibn Sayyor</b>	A	Murakkab vaziyatni hisobga olib, bo'ysuntirilgan yerli xalqlar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi
	B	Barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtirilib, yer egasining e'tiqodidan qat'iy nazar ularning xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi
<b>II. Ashros</b>		

	C	Xiroj miqdorini oshirib, aholini muttasil hasharlarga majburan jalb qilgani uchun umumiy norozilik nihoyatda kuchaydi
	D	Movarounnahr aholisini tinchlantirish va arablar hokimiyatini mustahkamlash maqsadida islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jiz'ya soliqlarini olmaslikka qaror qildi

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

10. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<b>I. Choch</b>	A	VII asrning dastlabki choragida G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlik qarorgohini ushbu hududga ko'chirgan
	B	Aholisi Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullangan
	C	Samarqand, Buxoro, Kesh vohalarining o'n bitta yirik mulklarini birlashtirgan
	D	Markaziy Osiyoda budda va moniylik dinlarini tarqalishi va rivojida muhim ahamiyat kasb etgan
<b>II. Toxariston</b>		

	<b>I</b>	<b>II</b>
Javob		
Ball:		

#### 4-savol

1. Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring.

**1. Farjak madrasasi**

**2. Faqihlar madrasasi**

- Buxoroning bu qadimiy binosi X asrda bino qilingan;
- Samarqandda qad ko'targan bo'lib, ikki qavat ellik hujradan iborat;
- O'rta Osiyodagi ilk ilmgoh hisoblanadi;
- Buxoroning Darvozai Mansur mahallasida qad ko'targan;
- madrasa ochilgan kuni birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Havofiy o'tagan;
- qonunshunoslar uchun maxsus qurilgan.

	<b>1</b>	<b>2</b>
Javob		
Ball:		

2. Tarixiy shaxslarni berilgan ma'lumotlar bilan to'g'ri moslashtiring.

**1. Rofe ibn Lays**

**2. Ya'qub ibn Lays**

- ushbu shaxs boshchiligidagi qo'zg'olon tohiriylarga qarshi qaratilgan;
- Abbosiyarga qarshi qaratilgan qo'zg'olonga rahbarlik qilgan;
- mazkur shaxsning xatti-harakatlari natijasida ummaviylar ag'darilib, o'rniga abbosiyalar hokimiyat tepasiga keladi;

- d) Buxoroda sodir bo‘lgan qo‘zg‘olonga rahbarlik qilib, Abu Muslimga qarshi kurash olib borgan;
- e) 873-yilda Xuroson poytaxti Nishopurni egallashga muvaffaq bo‘lgan;
- f) ushbu shaxsni qo‘lga olish uchun Xuroson noibi Ma‘mun Somonxudotning nabiralaridan yordam so‘ragan.

	1	2
Javob		
Ball:		

3. Quyidagi davlatlarni berilgan ma‘lumotlar bilan to‘g‘ri moslashtiring.

**1. G‘aznaviylar davlati**

**2. Somoniylar davlati**

- a) Narshaxiyning yozishicha, davlat boshqaruvi asosan o‘nta devon orqali idora etilgan;
- b) viloyat hukmdori – voliy, shahar hukmdori – rais deb yuritilgan;
- c) mamlakatda taxt nomzodini aniqlab taqdim etadigan kengash faoliyat yuritgan;
- d) davlat qudratli qo‘shindan tashqari harbiy flotga ham ega bo‘lgan;
- e) VII asrning birinchi yarmida davlatning Xitoy bilan iqtisodiy aloqalari faollashgan;
- f) davlat ravnaq topgan davrda Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Sharqiy Eronni o‘z ichiga olgan.

	1	2
Javob		
Ball:		

4. O‘rta asrlarda sodir bo‘lgan janglarni to‘g‘ri moslashtiring.

**1. Xo‘jand shahri yaqinidagi jang**

**2. Talos vodiysidagi jang**

- a) jang natijasida Somoniylar davlati tarix sahnasidan ketadi;
- b) ushbu jangda xitoyliklar mag‘lubiyatga uchraydi;
- c) mazkur jangda Sobuqtegin xiyonat qilib Buxoroni egallaydi;
- d) jang natijasida xitoyliklar qo‘shini mamlakat hududidan quvib chiqarildi;
- e) qoraxoniylar va qoraxitoylar o‘rtasida bo‘lib o‘tadi;
- f) qoraxoniylar eloqxoni Mahmudga qaqshatqich zarba beriladi.

	1	2
Javob		
Ball:		

5. Tariqatlar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘g‘ri moslashtiring.

**1. Yassaviya tariqati**

**2. Kubraviya tariqati**

- a) tarkidunyochilikni rad etadi;
- b) kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g‘oyasi olg‘a suriladi;
- c) mazkur tariqat Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi;
- d) har qanday og‘ir damlarda ham Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da‘vat etadi;
- e) inson zoti sharif darajasida ulug‘lanadi;

f) uning taraqqiyotiga Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror kabi allomalar katta hissa qo‘shgan.

	1	2
Javob		
Ball:		

6. Buyuk allomalar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘g‘ri moslashtiring.

**1. Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy**      **2. Burhoniddin al-Marg‘inoniy**

- uning “Hidoya” asari musulmon huquqshunoslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo‘llanma vazifasini o‘tab kelgan;
- kalom ilmi ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan hamda Islom olamida “musulmonlarning e‘tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafiga sazovor bo‘lgan;
- ko‘p asarlarini Makkaga yozganligi uchun “Jorulloh” (“Allohning qo‘shnisi”) degan sharaflil nomga muyassar bo‘ladi;
- 2000-yilda uning 1130-yilligi nishonlandi va Samarqandda uning xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmui barpo etildi;
- val-milla, ya‘ni Islom dinining dalili, isboti degan sharaflil nomga sazovor bo‘lgan;
- Al-Azhar diniy dorilfununining talabalari hozir ham uning “Al-kashshof” asari asosida Qur‘oni Karimni o‘rganadilar.

	1	2
Javob		
Ball:		

7. Shaharlar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘g‘ri moslashtiring.

**1. Xo‘jand shahri**      **2. Buxoro shahri**

- 806-yilda Rofe ibn Lays boshchiligida qo‘zg‘olon boshlanadi;
- Abruy boshchiligida qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tgan;
- Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan;
- Sulton Muhammad elchi Mahmud Yalavochni 1218-yilning bahorida ushbu shaharda qabul qiladi;
- Mahmud Yalavoch uni o‘ziga qarorgoh qilgan va shu yerdan turib, Movarounnahrni idora qilgan;
- Qarluqlar davlatining poytaxti hisoblangan.

	1	2
Javob		
Ball:		

8. Yer egaligi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni to‘g‘ri moslashtiring.

**1. Mulki xos (Somoniyalar)**      **2. Suyurg‘ol yerlar (mo‘g‘ullar)**

- bunday yerga ega bo‘lgan mulkdorlar soliq va to‘lovlardan ozod etilgan;
- oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo‘l ostidagi yerlar;
- Chig‘atoy ulusida hukmdor va noiblarga qarashli yerlar bo‘lgan;
- davlatga ko‘pincha hosilning 1/10 hisobida ushr solig‘i to‘langan;
- asosan lalmikor va tog‘oldi yerlaridan iborat bo‘lgan;
- ushbu yerlar avloddan avlodga meros tariqasida o‘tgan.

	<b>1</b>	<b>2</b>
Javob		
Ball:		

9. Quyidagi asarlarni berilgan ma'lumotlar bilan to'g'ri moslashtiring.

**1. "Qutadg'u bilig"**

**2. "Devoni lug'otit turk"**

- a) asrlar davomida musulmon mamlakatlaridagi huquqshunoslar uchun nazariy va amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan;
- b) asar dastlabki universal lug'at bo'lib, o'z muallifini dunyoga qomusiy olim sifatida tanitgan;
- c) mazkur asar islom huquqshunosligi bo'yicha mukammal manba hisoblangan;
- d) asarda oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi;
- e) asarda dunyo xaritasining ilova qilingani, uning qimmatini yanada oshirgan;
- f) asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rni va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi.

	<b>1</b>	<b>2</b>
Javob		
Ball:		

10. Xorazmshohlarni berilgan ma'lumotlar bilan to'g'ri moslashtiring.

**1. Takash**

**2. Alovuddin Muhammad**

- a) 1187–1193-yillarda Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi;
- b) uning saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo'lgan;
- c) dastlab, turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi;
- d) To'g'rulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi;
- e) o'z hukmronligining so'ngida 6 nafar bilimdon vakillaridan iborat "Davlat kengashi"ni ta'sis etadi;
- f) "xorazmshoh" unvonini tiklab, bunday nom bilan ulug'lansa-da, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibiligicha qolgan edi.

	<b>1</b>	<b>2</b>
Javob		
Ball:		

### 5-savol

1. To'g'ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1381-yil	Amir Temur	_____ A _____.
_____ B _____.	Amir Husayn	Ikki kunlik qamaldan keyin Amir Temurga taslim bo'lishga majbur bo'ldi
1365-yil	_____ C _____.	Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda g'alaba qozondi

1. 1370-yil.
2. Ilyosxo'ja.

3. Tugʻluq Temur.
4. Xorazmga beshinchi marta yurish qilib, uni uzil-kesil boʻysundirdi
5. Hirot, Seiston, Mozandarinni egallab, Xurosonda ham oʻz hukmronligini oʻrnatdi.
6. 1363-yil.

Javob:	A	B	C
Ball:			

2. Toʻgʻri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1385-yil	Amir Temur	<u>    A    </u> .
<u>    B    </u> .	Klavixo	oʻz yurtiga qaytib keldi
1553-yil	<u>    C    </u> .	Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi tadqiqoti hisoblangan “Skifiyalik Tamerlanning ulugʻvorligi” asari bosilib chiqdi

1. 1404-yil.
2. Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yoʻllaydi.
3. Perondino.
4. 1406-yil.
5. Pero Meksika.
6. Misr sultoni Barquq bilan rasmiy aloqalari boshlandi.

Javob:	A	B	C
Ball:			

3. Toʻgʻri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1405-yil	Xalil Sulton Mirzo	<u>    A    </u> .
<u>    B    </u> .	Amir Xudoydot	Oʻratepa va Shohruxiya shaharlarini osongina qoʻlga kiritib, Samarqand tomon askar tortadi
1411-1412-yillar	<u>    C    </u> .	Movarounnahr va Turkistonni toʻliq boshqarish uning qoʻliga oʻtadi

1. 1409-yil.
2. Pir Ali toz boshliq fitnachilar qoʻliga tushib halok boʻladi.
3. Shohrux Mirzo.
4. Samarqandni egallab, oʻzini Movarounnahrning oliy hukmdori deb eʼlon qiladi.
5. 1410-yil.
6. Mirzo Ulugʻbek.

Javob:	A	B	C
Ball			

4. To'g'ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1410-yil	_____ A _____.	o'z ittifoqchilari bilan Ulug'bekka qarshi jang qilib, uni mag'lubiyatga uchratadi
1425-yil	Mirzo Ulug'bek	_____ B _____.
_____ C _____.	Shohrux	Xorazmni Oltin O'rda tasarrufidan qaytarib oladi.

1. Xalil Sulton Mirzo.
2. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi.
3. 1409-yil.
4. 1413-yil.
5. Shayx Nuriddin.
6. Damashq qishlog'ida sodir bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchragan.

Javob:	A	B	C
Ball:			

5. To'g'ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1408-yil	Mironshoh	_____ A _____.
_____ B _____.	Ulug'bek	Farg'ona va Koshg'arni egallashga muvaffaq bo'ladi
1447-yil	_____ C _____.	Xuroson taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi

1. 1414-yil.
2. Vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.
3. 1418-yil.
4. Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrashi natijasida Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketadi.
5. Alouddavla.
6. Husayn Boyqaro.

Javob;	A	B	C
Ball			

6. To'g'ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1451-yil	_____ A _____.	Abulxayrxon yordamida Samarqandni egallab, Movarounnahr hukmdoriga aylanadi
_____ B _____.	Xoja Ubaydulloh Ahror	Samarqand qamalga olinganida mojaroga qat'iyon aralashib, raqiblarni yarashtiradi
1425-yil	Mirzo Ulug'bek	_____ C _____.

1. Abulqosim Bobur.

2. Jizzax yaqinidagi Ilono‘tti darasida qoyatoshda o‘ziga xos “zafarnoma” yozdiriladi.
3. Abu Said.
4. 1449-yil.
5. Ukasi Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligini bartaraf qilishga majbur bo‘ladi.
6. 1454-yil.

Javob:	A	B	C
Ball:			

7. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Voqea
1404-yil	<u>    A    </u> .	Samarqandga tashrif buyurdi.
<u>    B    </u> .	Boyazid	Amir Temur tomonidan asirga olinadi.
1457-yil	Abu Said	<u>    C    </u> .

1. Genrix IV.
2. Hirot taxtini egallab, Movarounnahr va Xurosonni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.
3. Klavixo.
4. 1395-yil.
5. Bulung‘ur anhuri yoqasidagi jangda Mirzo Abdullo ustidan g‘alaba qozondi.
6. 1402-yil.

Javob;	A	B	C
Ball			

8. To‘g‘ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Shaxs	Ma‘lumot
1370-yil	Amir Temur	<u>    A    </u> .
1582-yil	<u>    B    </u> .	Seveliyada “Esdaliklar” kitobi nashrdan chiqdi
<u>    C    </u> .	Shohrux	qariyb besh yil davom etgan o‘zaro kurash va isyonlarga chek qo‘yib Movarounnahr va Xurosonda o‘z hukmronligini o‘rnatdi

1. Klavixo.
2. Misr hukmdori Barquqning taslim bo‘lishiga majbur qildi.
3. 1409-yil.
4. Xristofor Morlo.
5. Sayyid Baraka bilan uchrashib, undan oliy hokimiyat ramzlarini olishga musharraf bo‘ldi.
6. 1412-yil.

Javob:	A	B	C



Ball			
------	--	--	--

9. To'g'ri moslashtirilgan javobni yozing.

Yil	Hudud	Ma'lumot
1410-yil	Movarounnahr	_____ A _____.
_____ B _____.	Tarnob yaqinida	Alouddavla 90 ming kishilik qo'shından mag'lubiyatga uchrab Xuroson taxtidan mahrum bo'ladi.
1449-yil	_____ C _____.	Mirzo Ulug'bek Abdulatif bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchrab, taslim bo'ladi.

1. Xorazmni egallab, davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining xavfsizligini barqarorlashtiradi.
2. Damashq qishlog'i.
3. 1451-yil.
4. Mirzo Ulug'bekka qarshi Turkiston hokimi isyon ko'taradi.
5. Bulung'ur anhoiri yoqasida.
6. 1448-yil.

Javob:	A	B	C
Ball			

10. To'g'ri moslashtirilgan javobni yozing.

Asr	Hudud	Ma'lumot
XIV	Eron va O'rta Osiyo	_____ A _____.
XV asr	_____ B _____.	butun bir astronomiya maktabi yaratildi
_____ C _____.	Samarqand	Xorazmshohlar hukmronligiga qarshi shahar aholisi qo'zg'olon ko'tardi

1. XIII asr.
2. Mo'g'ullar zulmiga qarshi sarbadorlar harakati bo'lib o'tdi.
3. Vabo tarqalib, qirq ming aholining umriga zomin bo'ldi.
4. Hirot.
5. Samarqand.
6. XII asr.

Javob:	A	B	C
Ball:			

## 6-savol

1. Quyidagilardan Abulxayrxon bilan bog‘liq 2 ta to‘g‘ri javobni aniqlang.

- Dashti Qipchoqning sharqiy qismida “O‘zbek ulusi” deb atalgan davlatga asos soldi;
- Movarounnahr va Xuroson temuriyzodalariga hamda Mo‘g‘uliston hukmdorlariga ichki raqiblariga qarshi kurashda harbiy yordam ko‘rsata boshladi;
- davlat poytaxtini Sig‘noqqa ko‘chirishi Temuriylarga qarshi kurashga kirishganligini anglatar edi;
- Movarounnahrning nufuzli davlat arboblari shayxulislom Abulmakorim boshchiligida uni Samarqand taxtini egallashga da‘vat etishdi;

Javob:		
Ball:		

2. Bobur Mirzo va ukasi Jahongir Mirzo o‘rtasidagi harbiy-siyosiy tanglikka barham bergan shartnoma bilan bog‘liq 2 ta to‘g‘ri javobni aniqlang.

- Jahongir Mirzo Andijonni egallab, Samarqand da‘vosidan voz kechdi;
- Sirdaryoning shimoliy tarafi Aysi shahri bilan Jahongirda qoldi;
- Bobur Mirzo Andijonga daxl qilmaydigan, faqat Samarqand bilan cheklanadigan bo‘ldi;
- Sirdaryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Boburda qoladigan bo‘ldi.

Javob:		
Ball:		

3. Sulton Husayn Boyqaro va Badiuzzamon o‘rtasida urush kelib chiqishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?

- Mozandaron va Seistonning Muzaffar Husayn Mirzoga tortiq qilishi;
- Sulton Husayn Boyqaroning Muzaffar Husayn Mirzoga nohaq yon bosishi;
- Badiuzzamon o‘g‘li Mo‘min Mirzoning qatl etilishi;
- zafarnomada Badiuzzamonning nomi inisidan keyin tilga olinishi

Javob:		
Ball:		

4. Dashti Qipchoqdagi o‘zbek qabilalari nima sababdan Muhammad Shayboniyxonning hokimiyat tepasiga kelishini qo‘llab-quvvatladilar?

- Abulxayrxon vafotidan so‘ng boshlangan o‘zaro qirg‘inlarni yana takrorlanishini istamas edilar;
- Temuriylar tortib olgan sharqiy viloyatlarni qaytarishga yagona qodir kuch Shayboniyxon deb bilganlar;
- Xuroson orqali o‘tadigan savdo yo‘llari ustidan nazoratni to‘liq qo‘lga olish niyatida edilar;
- o‘zbek qabilalari ko‘pdan buyon to‘la o‘troq tarzda yashashni umid qilib kelardilar.

Javob:		
Ball:		

**5. Shayboniy Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari nimadan iborat?**

- a) Samarqandning poytaxt sifatidagi nufuzini har tomonlama oshirdi;
- b) Ismoil Safaviy qo‘shinining hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqidan saqlab qoldi;
- c) Boburiy hukmdor Shohjahon bilan elchilik aloqalarini rivojlantirdi;
- d) mamlakat ichkarisidagi siyosiy tarqoqlikka barham berdi.

Javob:		
Ball:		

**6. Shayboniy Pirmuhammad II hukmronligi davrida Buxoro xonligining tashqi siyosatida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?**

- a) Eron hukmdori shoh Abbos bostirib kirib, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni egalladi;
- b) Eronga qarshi birgalikda harakat qilish taklifi bilan Rossiyaga Polvonquli qurchi boshchiligida elchi yubordi;
- c) Xorazm Buxoro xonligi tasarrufidan chiqib, o‘zining davlat mustaqilligini tiklab oldi;
- d) Rossiya tomonidan Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq aloqalarida kamsitish siyosati yuritila boshlandi.

Javob:		
Ball:		

**7. Subhonqulixon davrida Buxoro xonligidagi ahvol murakkab ekanligi qaysi jarayonlarda namoyon bo‘ldi?**

- a) o‘g‘li dastidan Balxga qochib, Hindiston podshohi temuriyzoda Shohjahondan yordam so‘raydi;
- b) viloyatlardagi amir va beklarning markaziy hokimiyatdan mustaqil bo‘lish yo‘lidagi harakatlariga qarshi kurash olib boradi;
- c) Eron yordamida o‘z mavqeyini mustahkamlashga uringanligi hukmdor o‘g‘illarini tashvishlantiradi;
- d) Xiva xoni Anushaxon ma’lum muddat Samarqandni egallab, o‘z nomiga xutba o‘qittiradi.

Javob:		
Ball:		

**8. Ashtarxoniylar hukmdori Ubaydullaxon II markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?**

- a) yirik yer egalari va Jo‘ybor shayxlarini soliq to‘lamaslik imtiyozidan mahrum qildi;
- b) tanhodorlarni o‘z mulkidan keladigan daromadlaridan mahrum etib, soliq va majburiyatlar miqdorini ko‘paytirdi;
- c) Tarxon yorlig‘ini chiqarib, aholini savdo daromadidan to‘laydigan boj solig‘idan ozod etdi;

d) xiroj miqdorini kamaytirib, hunarmandlarni majburiy mehnatga jalb etishni taqiqladi.

Javob:		
Ball:		

9. Shayboniylar davlat boshqaruvida naqib qanday o‘ringa ega edi?

- a) davlat lavozimlari ichida eng oliysi hisoblangan;
- b) xonning yaqin va ishonchli kishisi sanalgan;
- c) mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini nazorat qilib borgan;
- d) zarur bo‘lganda elchilik vazifasini ham bajargan.

Javob:		
Ball:		

10. Shayboniylar qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?

- a) suyurg‘ol yerlarining suvga yaqin qismi 20 tanobdan qilib yirik yer egalariga taqsimlab berildi;
- b) tanhodorlar yerlarining bir qismi musodara qilinib, kambag‘al va batrak dehqonlarga bo‘lib berildi;
- c) o‘zlari yashab kelgan joylardan qochib ketgan dehqonlar va mayda yer-mulk egalari topib kelindi hamda yerlari qaytarib berildi;
- d) yerdan unumli foydalanish uchun yer egalariga davlat tomonidan yordam berildi.


Javob:		
Ball:		

### 7-savol

1. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan **mang‘it** hukmdorlari bilan bog‘liq tarixiy voqealarni taqqoslang.

**I. Muhammad Rahimbiy**

**II. Shohmurod**




- a) Samarqandni tiklash chorasini ko‘rdi;
- b) ommaga tayanib ish tutdi va adolat tamoyillariga qattiq amal qildi;
- c) barcha mang‘it beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi;
- d) Buxoroning butun aholisini Xiva xonligiga qarshi mamlakatni himoya qilishga da‘vat etdi;
- e) markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni yashab turgan joyidan ko‘chirtirib yuborish amaliyotini qo‘lladi.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			

2. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan davlatlarni taqqoslang.

**I. Buxoro amirligi      II. Qo‘qon xonligi**




- a) Amudaryo o‘z o‘zanini o‘zgartirishi natijasida mamlakat iqtisodiy inqirozga duchor bo‘ldi;
- b) XIX asrning birinchi yarmida O‘ratepa uchun bir necha kurash olib bordi;
- c) 1832-yilda Pekinda Xitoy bilan shartnoma imzolandi;
- d) XIX asrning birinchi yarmida davlat hududi 200 ming<sup>2</sup>ni tashkil qilib, aholisi 2 million kishidan iborat edi;
- e) A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya fojiali tugadi.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			

3. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan hukmdorlarni taqqoslang.


**I. Amir Haydar      II. Muhammad Rahimxon I**



- a) davlat boshqaruvi tizimini isloh qilib, Oliy Kengash va Kichik Kengashlarni joriy qiladi;
- b) Arabxon va Muhammad Amin inoq madrasalarini qaytadan qurdiradi;
- c) 1804-yil Marvda ukasi Dinnosirbek boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tariladi;
- d) Shahrisabz va Kitobni bo‘ysuntirish uchun 30 yil davomida kurash olib boradi;
- e) 1822-yilda Marv uchun kurash olib boradi.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			


4. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan hukmdorlarni taqqoslang.

**I. Arab Muhammadxon****II. Elbarsxon (shayboniy)**

- Vazir shahrini Eron qo‘shinlaridan ozod etgani sharafiga o‘z o‘g‘illari nomiga “g‘ozi” laqabini qo‘shib aytishni buyuradi;
- o‘z davlatining poytaxtini o‘zgartiradi;
- qo‘ng‘irotlar sulolasining hukmronligini rasman e‘lon qiladi;
- uning hukmronligi davrida davlat Xiva xonligi deb atala boshlandi;
- bojxona tizimini isloh qilib, mamlakatda ichkilikni ta‘qiqlaydi.

	I	II	III
Javob:			
Ball:			

5. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan **shayboniy** hukmdorlar bilan bog‘liq tarixiy voqealarni taqqoslang.

**I. Ubaydullaxon****II. Abdullaxon II**


- Balxni Eron safaviylaridan tortib olib, u yerda ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi;
- safaviylarga qarshi kurashda ma‘naviy ilhomchisi bo‘lgan Abdulla Sabroniy tomonidan qo‘llab-quvvatlandi;
- Xorazmga hujum qilib, Xiva xonligini bo‘ysuntirdi;
- mamlakat viloyatlarini o‘g‘illariga va yaqin qarindoshlariga mulk qilib taqsimlab berishi natijasida siyosiy tarqoqlik avj oladi;
- Safaviylarga qarshi kurash olib borishi natijasida Xurosonning sharqiy qismini egalladi.

	I	II	III
Javob:			
Ball:			

6. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan hukmdorlarni taqqoslang.

**I. Abulfayzxon**

**II. Elbarsxon (chingiziy)**




- a) 1740-yil Eron shohi Nodirshoh hujumiga duchor bo‘ldi;
- b) davlatning boshqaruv tuzulmasini o‘zgartirib, ayrim viloyatlar hokimligiga urug‘ boshliqlarini tayinladi;
- c) mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo‘lida bir qo‘g‘irchoq hukmdorga aylandi;
- d) Qozoq xonligidan chiqqan chingiziy sulolaning Xiva xonligidagi dastlabki hukmdori hisoblanadi;
- e) o‘z hokimiyatini mustahkamlash va Buxoroga qaramlikdan qutulishga intilib, Rossiya bilan aloqalarni mustahkamlashga harakat qildi.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			

7. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan hukmdorlarni taqqoslang.

**I. Asfandiyorxon**

**II. Abulg‘oziy Bahodirxon**




- a) 1621-yilgi isyon chog‘ida otasi tarafidan turib urushga qatnashdi;
- b) Xorazm tarixnavislik maktabiga asos soldi;
- c) hukmronligi davrida yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog‘lanib, xonlik fuqarolari tarkibiga olindi;
- d) o‘zining nomi bilan ataluvchi madrasa, karvonsaroy, tim, 111 xonadan iborat Toshhovli saroyini bunyod ettirdi;
- e) Abbas I yordamida Xiva taxtini egallab, 20 yil hukmronlik qildi.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			

8. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan tarixiy shaharlarni taqqoslang.

**I. Xiva shahri**      **II. Qo‘qon shahri**




- a) XV asrdan boshlab Xiva xonligining markaziga aylangan;
- b) shaharda 38 ta karvonsaroy bo‘lib, har yili 12-15-tuyada mol kelgan;
- c) shahar 1842-yilda devor bilan o‘rab olingan;
- d) shaharning Ko‘hna arki yoniga Kalta minor nomi bilan mashhur bo‘lgan minora qad ko‘targan;
- e) 12 dahaga bo‘linganligi uchun ham shaharga 12 darvozadan kirilgan.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			

9. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan tarixiy shaxslarni taqqoslang.

**I. Munis Xorazmiy**      **II. Ogahiy**




- a) mohir tarjimon bo‘lib, Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa”sidagi ba’zi dostonlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan;
- b) Xiva xoni saroyida mirob mansabida faoliyat ko‘rsatgan;
- c) uning 20 mingdan ortiq misradan iborat “Oshiqlar do‘sti” devoni, xattotlar tomonidan ko‘chirilib ajoyib kitob holiga keltirilgan;
- d) uning qalamiga mansub asar Xiva xonligining 1512 – 1663-yillardagi tarixi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beradi;
- e) Muhammad Rahimxon I davrida dastlab sipohi, keyinchalik qozi askar lavozimida faoliyat ko‘rsatgan.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			



10. Venn diagrammasiga tayanib, quyida berilgan hukmdorlarni taqqoslang.

**I. Muhammad Rahimxon I      II. Olimxon**



- a) yirik zodagonlar va ruhoniylarning qo‘llab-quvvatlashin natijasida hokimiyatni egallab, qo‘ng‘irotlar sulolasiga asos soldi;
- b) o‘z davlatida birinchi bo‘lib muntazam qo‘shin tuzdi;
- c) kambag‘al va qalandarlarga yer hamda chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb etdi;
- d) Toshkentdan chaqirilgan qo‘shin yordamida qipchoqlar hukmronligiga chek qo‘ydi;
- e) XIX asr boshlarida Afg‘onistonda hokimiyat uchun kurashayotgan Shoh Mahmudning ikkinchi marta hokimiyat tepasiga kelishida yordam berdi.

	<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>
Javob:			
Ball:			

### 8-savol

1. Quyidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	Chingizxon Urganch shahrini egallab, Amudaryo to‘g‘onini buzdirib tashlaganligi oqibatida Amudaryo o‘zani o‘zgardi.	Orolbo‘yi qoraqalpoqlarning bir qismi Volga va O‘rol daryolari bo‘ylariga Sirdaryo vohalariga ko‘chib ketishga majbur bo‘ldilar.
2	XVI asrning ikkinchi yarmida No‘g‘ay xonligi parchalandi.	Qoraqalpoqlar Sirdaryoning quyi etagiga ko‘chib keldilar va qozoqlarning kichik Juz xonligi tarkibiga kirdilar.
3	Xiva xoni Said Muhammadxon qoraqalpoq xalqining qattiq bosimi ostida ularga o‘zini – o‘zi boshqarish huquqini berdi.	Xiva xonligi tarkibida bo‘lsa-da, qoraqalpoqlar davlatchiligi amalda tiklandi va butun hokimiyat inoq qo‘lida to‘plandi.

	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
Javob:		
Ball:		

2. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	Qoraqalpoqlar Kichik Juz xoni Abulxayrxonga qarshi olib borgan urushda yengildilar.	Sirdaryo bo'yidagi qoraqalpoqlar har yoqqa tarqab ketdilar.
2	Xiva xoni Olloqulixon Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun qo'shin jo'natdi.	qo'shin mag'lubiyatga uchrab, poytaxti Jankent bo'lgan qoraqalpoqlar davlati vujudga keldi.
3	1731-yilda Rossiya o'z elchisi M. Tevkelevni Abulxarxon huzuriga jo'natdi.	Kichik juz tarkibidagi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilindi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

3. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	Xiva xoni Olloqulixon Buxoro amirligiga qarshi hujum qildi.	Amir Haydar 40 kun qamal qilgan Qo'qon shahrini tark etishga majbur bo'ldi.
2	1740-yilda Farg'ona vodiysiga jung'orlar hujum qildi.	Jung'orlarga qarshi kurashda qipchoqlar minglarga yordam berib, hujum juda qiyinchilik bilan qaytarildi.
3	XVIII asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligi Xitoy hujumiga uchradi.	Qo'qon yengilib, Erdonabiy hokimiyati inqirozga uchradi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

4. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	1832-yilda Pekinda Qo'qon-Xitoy shartnomasi imzolandi.	Xitoy hukmdori Qashqarda savdogarlardan boj yig'ish huquqini qo'lga kiritdi.
2	1842-yilda Qo'qon xonligi hududida katta qo'zg'olon ko'tarildi.	Buxoro amirining Qo'qondagi noibi va beklar hokimiyati tugatildi.
3	Norbo'tabiy Namangan hokimi Irisqulibiyga qarshi qo'shin tortdi.	Irisqulibiy g'alaba qozonib, Xo'jand va O'ratepada hokimiyatni qo'lga oldi.

	To'g'ri	Noto'g'ri			
Javob:					
Ball:					

5. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	Erdonabiy Xitoy bilan tahqirli shartnomani imzolashga majbur bo'ldi.	Qo'qon xonligi o'zining xitoyga qaram ekanligini tan oldi.
2	O'sh aholisi soliqlarning haddan tashqari og'irligidan 1845-yilda qo'zg'olon ko'tardi.	Musulmonqul qo'zg'olonni bostirib, kuyovi SHERALIXONNI u yerda hokim etib tayinlaydi.
3	Madalixon 1825-yilda Qashqar aholisining Xitoyga qarshi ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladi.	Xitoy hukumati Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi.

	To'g'ri	Noto'g'ri			
Javob:					
Ball:					

6. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	Amir Haydar Usmonlilar sultoni Mahmud II ga Xiva va Qo'qon xonliklari ustidan arz qilib xat jo'natdi.	Sulton Mahmud II Qo'qon xonligining Buxoro amirligi oldida mustaqil davlat maqomini tan oldi.
2	Yusufxo'ja Qashqarni egallab, Yorkentni egallash uchun harbiy harakatlar olib bordi.	Qo'qon hukumati qattiq tashvishlanib, Yusufxo'jaga qarshi katta qo'shin yubordi.
3	Madalixon 1825-yilda Qashqar aholisining Xitoyga qarshi ozodlik kurashini qo'llab-quvvatladi.	Xitoy hukumati Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi.

	To'g'ri	Noto'g'ri			
Javob:					
Ball:					

7. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	1726-yilda qozoqlarning Kichik Juz xoni Abulxayrxon Peterburgga o'z elchilarini jo'natdi.	Rossiya elchilarni qabul qilib, 40 ming kishilik qo'shin bilan yordam berish iltimosini bajaradigan bo'ldi.
2	Erdonabiy O'sh va O'zgan viloyatlarini bo'ysuntirdi.	Qo'qonning Xiva xonligi bilan munosabatlari buzilib, elchilik aloqalari vaqtincha uzildi.
3	Madalixon Usmonli sultonligiga elchi jo'natib, sultondan Qo'qonga qurol - aslaha ustalarini yuborishni so'radi.	Usmonlilar tomonidan bu iltimos rad etildi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

8. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	XIII asrning 20-yillarida qoraqalpoqlar Chingizxon hujumiga duchor bo'lishdi.	poytaxti Kerder shahri bo'lgan davlat zavolga yuz tutdi.
2	Rossiya va Qo'qon xonligi O'rta juz qozoqlari homiysi bo'lishga da'vo qilayotgan edi.	1825-yilgi Qo'qon – Rossiya elchiligi muvaffaqiyatsiz tugadi.
3	Olimxon harbiy islohot o'tkazib muntazam qo'shin tuzdi.	Ohangaron vohasi, Chimkent, Sayram, Turkiston hududlari Qo'qon xonligi tarkibiga kirdi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

9. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

<b>№</b>	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
1	1842-yilda Buxoro amirligi Qo'qon xonligiga hujum qildi.	Qo'qon xonligining Nikolay I bilan yo'lga qo'ygan elchilik natijalari yo'qqa chiqdi.
2	1723-yilda jung'orlar Sirdaryoning o'rta qismini egalladi.	Katta juz xonligining shimoliy qismi jung'orlar qo'lga o'tib, mahalliy aholi ularga boj to'lashga majbur bo'ldi.
3	Shohruxbiy Qo'qonda hokimiyatni o'z qo'lga olib Tepaqo'rg'anni qarorgohiga aylantirdi.	Abdulazizxon unga otaliq unvonini berib, mustaqilligini tan olishga majbur bo'ladi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

10. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

N <sub>o</sub>	Voqea	Natija
1	Musulmonqul mingboshi rus qo'mondonligi vakili V. Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashdi.	Sheralixon musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berishga qaror qildi.
2	Abdulkarimbiy davrida qipchoqlarning zo'ravonlik va talonchiligi yuz berdi.	1732-yilda tuzilgan o'zbek qabilalarining ittifoqi parchalanib ketdi.
3	Erdonabiy Xitoy bilan tahqirli shartnomani imzolashga majbur bo'ldi.	Qo'qon xonligi o'zining Xitoyga qaram ekanligini tan oldi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

### 9-savol

1. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	Voqea	Natija
1	Amir Nasrullo ingliz elchilari Ch. Stoddart va A. Konollini qat ettirdi.	Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan sulh tuzib ularni qurollantirdi.
2	Zirabuloq jangidan keyin Amir Muzaffar o'z mag'lubiyatini tan olib fon Kaufmanning yangi chegaralari haqidagi taklifini qabul qildi.	Rossiya imperiyasi istilochilik yurishlarining uchinchi bosqichi o'z yakuniga yetdi.
3	1877-yilda Toshkentda "Shahar nizomi" joriy etildi.	Shahar boshqaruvi Dumaga o'tdi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

2. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
<b>1</b>	AQShda 1861 – 1865-yillarda fuqarolar urushi bo‘lib o‘tdi.	Rossiyaning to‘qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosiga taqchillik vujudga keldi.
<b>2</b>	1869–1870-yillarda Rossiya imperiyasi va Angliya o‘rtasida O‘rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to‘g‘risida muzokaralar olib borildi.	Chegaralar Amudaryo bo‘ylab Panj tumanidan o‘tkazilishiga kelishildi.
<b>3</b>	Aleksandr III tomonidan yangi “Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi.	Samarqand viloyati Zarafshon okrugiga aylantirildi.

	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
Javob:		
Ball:		

3. Quyidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
<b>1</b>	1853-yilda rus qo‘shinlari Oqmachit qal’asiga ikkinchi marta hujum boshladi.	12 kunlik qarshilikdan so‘ng qal’a egallanib unga Perovskiy forti deb nom berildi.
<b>2</b>	1868-yilda Amir Muzaffar Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzoladi.	Rossiyalik savdogarlarga savdo agentliklarini ta’sis etishga ruxsat berilib, tovarlardan olinadigan boj umumiy qiymatining 5 foizdan oshmasligi belgilandi.
<b>3</b>	XIX asrning 80-yillarida Turkiston general-gubernatori kengashi joriy etildi.	Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig‘i ham bu Kengashning doimiy a’zosi bo‘ldi.

	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
Javob:		
Ball:		

4. Quyidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
<b>1</b>	Chernyayev tomonidan Chimkent shahri egallandi.	1864-yilda qo‘lga kiritilgan qal’alar Yangi Qo‘qon chizig‘i asosida birlashtirildi.
<b>2</b>	1873-yilning fevralida Xivani egallash uchun to‘rt harbiy	Krasnovodsk va Mang‘ishloqdan yo‘lga chiqqan qo‘shin jazirama issiq va suv yetishmasligi sababli yo‘lning

	okrugdan 12 mingdan ortiq askar yo'lga chiqdi.	yarmidan ortga qaytishga majbur bo'ldi.
3	1886-yilda Turkiston o'lkasi bo'yicha yangi Nizom qabul qilindi.	An'anaviy yerga egalik qilish munosabatlari o'zgartirilsa-da o'lkada yirik yer egaligi saqlanib qolindi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

5. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	Voqea	Natija
1	1873-yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II fon Kaufman bilan Gandimiyon qishlog'ida vassallik to'g'risida shartnoma imzoladi.	Xiva xonligi 2 mln rubl miqdoridagi tovonni 20 yil davomida to'lashi belgilandi.
2	N. Veryovkin Turkiston himoyachilari taslim bo'lmasa shaharni yalpi o'qqa tutib, Ahmad Yassaviy maqbarasini yakson qilishni ultimatum tarzida qo'ydi.	Aliquli o'z qo'shinini Turkistondan olib chiqib, Chimkent mudofaasi uchun chekindi.
3	1886-yilgi Nizom bo'yicha Turkistonda sud tizimi isloh qilindi.	o'lkada sud tergovchilari viloyat prokurori va ularning yordamchisi lavozimlari tugatildi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

6. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	Voqea	Natija
1	Xudoyorxon Po'latxon qo'zg'olonini bostirish uchun Abdurahmon Oftobachi, Iso Avliyolar boshchiligida qo'shin yubordi.	Xudoyorxon yuborgan shaxslar xoinona yo'l tutib, qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketdi.
2	1881-yilda "Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom" qabul qilindi.	Toshkent sud palatasi raisi "favqulodda qo'riqlash" holatini o'z ixtiyori bilan joriy etish huquqiga ega bo'ldi.

3	1864-yil 1-oktabr M. Chernyayev o'zini podshoga yaxshi ko'rsatish uchun tezlik bilan Toshkentni qo'lga kiritmoqchi bo'ldi.	70 nafardan ziyod askarlaridan ajralib, Chimkentga chekinishga majbur bo'ldi.
---	--	---

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

7. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	Voqea	Natija
1	Nasriddinbek mag'lubiyatdan qo'rqib taslim bo'ldi va fon Kaufman bilan shartnoma imzoladi.	Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o'tganligi belgilanib, u yerda Amudaryo bo'limi tashkil etildi.
2	1865-yil aprelda podsho hukumati qo'shinlari Niyozbek qal'asini qo'lga kiritdi.	Toshkentga boradigan suv yo'llari to'sib qo'yildi.
3	1890-yillarda Turkistonda sud tizimi yana bir isloh qilindi.	Viloyati sudlari tugatilib, uning o'rniga okrug sudlari tashkil qilindi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

8. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	Voqea	Natija
1	1879-yil Angliya Afg'oniston hududining bir qismini bosib oldi.	Inglizlar uchun O'rta Osiyoni egallash uchun yo'l ochildi.
2	Buxoro amiri 10 kun mobaynida 100 ming rubl tovon to'lash shartini bajarmadi.	N. Krijanovskiy o'z qo'shinlariga amirlikka qarshi hujum boshlashga buyruq berdi.
3	Podsho Rossiyasi 20 yildan ortiq vaqt davomida Turkistonda o'z hukmronligini o'rnatdi.	Istilo qilingan hududlarda to'rtta viloyat tashkil qilinib, ular Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

9. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.



	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
<b>1</b>	Fon Kaufman Buxoro amiriga chegaraning Rossiya mulki foydasiga o'zgartirilgan yangi loyihani tasdiqlashni taklif qildi.	Amir Muzaffar bu shartnomani imzolashdan bosh tortdi.
<b>2</b>	Rossiya imperiyasi yerlik aholiga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun Toshkentda mahkama joriy etildi.	Uning tarkibiga ruslardan saylangan sudya va 7 nafar mahalliy qozilar kirgan.
<b>3</b>	Uch oy davom etgan janglardan so'ng turkmanlarning Go'ktepa qal'asi qo'lga olindi.	Turkmanlarning istilo qilingan hududlarida Kaspiyorti viloyati tashkil qilindi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

**10.** Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, voqea va uning natijasini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

	<b>Voqea</b>	<b>Natija</b>
<b>1</b>	Aleksandr II tomonidan 1867-yilda Nizom qabul qilindi.	Chorvador aholi bir bosqichli tizimga ya'ni oqsoqolliklarga birlashtirildi.
<b>2</b>	Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Jo'rabek va Bobobek boshchiligida Samarqandda kurash olib borildi.	Rus qo'shinlaridan qo'shimcha harbiy kuchlar yetib kelgach, xalq himoyachilari Samarqanddan chiqib tog' tomonga chekinishga majbur bo'lishdi.
<b>3</b>	Turkistonda paxta ekini keng tarqalib, Rossiya kapitali joriy etildi.	XX asr boshlarida temiryo'llarning nafaqat harbiy, balki iqtisodiy ahamiyati ko'tarildi.

	To'g'ri	Noto'g'ri
Javob:		
Ball:		

### **10-savol**

**1.** Quyidagi ma'lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

- Rossiyadan aholining Farg'ona viloyatiga ko'plab ko'chirib keltirilishi yer taqchil va aholi zich yashaydigan vodiyning ahvolini nihoyatda yomonlashtirib yubordi;
- Andijonda Darveshxon boshchiligida qo'zg'olonchilar kurash usullarini o'zgartirib, boylar va volost boshliqlarining qarorgohlariga hujum uyushtirdilar;

c) aholining hamma soliqlarni to‘laganligiga qaramay Xo‘jand uyezdining boshlig‘i Xo‘jand va O‘ratepa tumanlaridagi aholidan qo‘shimcha yer solig‘i olinishini e‘lon qildi.

Javob:			
Ball:			

2. Quyidagi ma‘lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

a) mustamlakachilar oddiy fuqarolarni ma‘murlarga qarshilik ko‘rsatgan taqdirda bevosita harbiy dala sudiga bera boshladilar;

b) mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi Mingtepada Yetimxon boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi;

c) qo‘zg‘olon ko‘tarilishining oldini olmaganligi uchun Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori va bir qancha amaldorlar N. Korolkov tomonidan lavozimidan bo‘shatildi.

Javob:			
Ball:			

3. Quyidagi ma‘lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

a) Mingtepada mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘tarildi;

b) harbiy vazir N. Kuropatkin yangi tayinlangan Turkiston general-gubernatori S.M. Duxovskoyga o‘lim jazosini ko‘paytirmaslik haqida telegramma jo‘natdi;

c) Turkiston o‘lkasida “Harbiy holatda deb e‘lon qilingan joylar haqida Qoida” joriy etildi.

Javob:			
Ball:			

4. Quyidagi ma‘lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

a) Tojikqishloqdagi telegraf simlarining qirqib tashlanishi bilan Andijonda qo‘zg‘olon boshlanib ketdi;

b) Marg‘ilon aholisi soliq to‘plash noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqib, soliqlarning kamaytirish talabi bilan viloyat boshqarmasi binosi oldiga yig‘ildi;

c) Sankt-Peterburg Turkiston general-gubernatorining iltimosini qondirib, o‘lkada “mirshablik holati”ni joriy etishga ruxsat berdi.

Javob:			
Ball:			

5. Quyidagi ma‘lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

a) Ernazarbiy boshchiligidagi qoraqalpoqlar bundan buyon Xiva xonligiga bo‘ysunmasligini e‘lon qildilar;

b) dehqonlarning ahvoli og‘irlashishi oqibatida Nukus volosti va Qo‘ng‘irot bekligida norozilik harakatlari amalga oshirildi;

c) Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiruvchi Amudaryo bo‘limi tashkil etildi.

Javob:			
Ball:			

6. Quyidagi ma'lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

- mang'it hokimi Xo'janioz tomonidan Tosh madrasasi qurdirildi;
- Said Muhammadxon Ernazarbiy qo'zg'olonini bostirish uchun yasovulboshi Muhammadniyoz boshchiligida katta qo'shin yubordi;
- Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan qoraqalpoqlar yashaydigan yerlar Rossiya imperiyasiga qo'shib olindi.

Javob:			
Ball:			

7. Quyidagi ma'lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

- Ismoil G'aspiralining Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma'rifatparvarlik g'oyalarning keyingi rivojiga turtki bo'ldi;
- yangi usul maktablariga mo'ljallangan "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" kitobi chop etildi;
- Ismoil G'aspirali tomonidan Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos solindi.

Javob:			
Ball:			

8. Quyidagi ma'lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

- Buxoroda jadidchilik harakati siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi;
- Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi;
- Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati o'zining ikkinchi bosqichi – siyosiy ko'rinishdagi harakatga aylandi;

Javob:			
Ball:			

9. Quyidagi ma'lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

- Qo'qon shahrida Salohiddin domla boshchiligida ikkinchi jadid maktabi ochildi;
- Abdulla Avloniy "Shuhrat" gazetasiga asos soldi;
- Munavvarqori Abdurashidxonov Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Javob:			
Ball:			

10. Quyidagi ma'lumotlarni xronologik ketma-ketligini aniqlang.

- Toshkentda barcha erkparvar tashkilotlarining umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona tashkilot – "Musulmon markaziy sho'rosi" tuzildi;
- Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga erishdi;

c) iste'dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborish bilan shug'ullangan "Tarbiyai atfol" jamiyati o'z faoliyatini boshladi.

Javob:			
Ball:			

### 11-savol

1. O'rta Osiyodagi taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatiga ko'ra 3 qismga bo'lingan bo'lib, shundan Buxoro jadidchiligi bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlang.

- a) jadidchilik ikki oqimdan: o'ng va so'l oqimdan iborat edi;
- b) ushbu taraqqiyparvarlik harakati Turkiston o'lkasiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi;
- c) soliqlarni kamaytirish talabi bilan ham chiqishdi;
- d) Shamsiddin domla boshchiligida siyosiy-ma'muriy tuzumni o'zgartirish loyihasi ishlab chiqildi.

Javob:			
Ball:			

2. 1893-yilda Ismoil G'aspiralining bir necha shaharlarga tashrif buyurishi O'rta Osiyodagi taraqqiyparvarlik harakati uchun qanday ta'sir ko'rsatdi?

- a) ma'rifatparvarlik g'oyalarning keyingi rivojiga turtki bo'ldi;
- b) ma'rifatparvarlik 1895-yildan boshlab siyosiy ko'rinishdagi harakatga aylandi;
- c) Turkiston xalq kutubxonasi ochilib, aholini savodli qilish yangi bosqichga ko'tarildi;
- d) Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi.

Javob:			
Ball:			

3. Jadidlar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini qanday yo'l bilan ta'minlamoqchi edi?

- a) mavjud bo'lgan soliqlarni kamaytirish orqali aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilash;
- b) cheklangan monarxiyani joriy qilish orqali davlat xazinasini ustidan xalq nazoratini o'rnatish;
- c) barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash;
- d) yerni, yerosti va yerusti boyliklarni, suvni Turkiston xalqlarining umumiy boyligi deb e'lon qilish.

Javob:			
Ball:			

4. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- a) ta‘lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingan edi;
- b) dastlab Qozon va Orenburgda nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanildi;
- c) o‘quv kuni ikki qismdan iborat bo‘lib, darsni dastlab rus o‘qituvchisi, ikkinchi qismida esa mahalliy o‘qituvchi olib borgan.
- d) ushbu maktablar tarmog‘ini yaratish loyihasi G. Rozenbax tomonidan ishlab chiqildi.

Javob:	a	b
Ball:		

5. Turkiston o‘lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma‘rifatparvar siyosiy arbob Munavvarqori bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- a) 1909-yilda islom dini tarixiga doir asar yaratdi;
- b) maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi” kabi darsliklarni bosmadan chiqardi;
- c) 1916-yil Qo‘qonda o‘z teatriga asos soldi;
- d) uning muharrirligida “Xurshid” gazetasi chop etildi.

Javob:		
Ball:		

6. Musulmon markaziy sho‘rosi bilan bog‘liq to‘g‘ri javobni aniqlang.

- a) 1917-yil mart oyida jadidlar tomonidan Toshkentda tashkil etildi;
- b) “Usuli qadim”ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun dasturlar ishlab chiqish kerakligi ta‘kidlandi;
- c) syezdda bo‘lajak davlat Turkiston deb atalishi, uning tarkibiga Buxoro, Xiva va Turkiston general-gubernatorligi kirishi kerak degan fikr ma‘qullandi;
- d) Turkiston muxtoriyati deb atalgan mustaqil muxtor respublika tuzish g‘oyasi inkor etildi.

Javob:		
Ball:		

7. 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonida mahalliy aholi nima sababdan jazolanib, o‘z uylaridan cho‘lga haydab yuborildi?

- a) Oqsoqol Damir kulolning uyiga o‘t qo‘yib, aholi tomonidan do‘pposlangani;
- b) qo‘zg‘olonida ishtirok etganligi va qo‘zg‘olonga xayrixohligi;
- c) qo‘zg‘olonchilarni tutishda podsho hukumatiga yordam bermaganligi;
- d) Andijon kazarmasiga hujum qilib, 22 nafar rus askarini o‘ldirganligi.

Javob:		
Ball:		

**8.** Buxoro amirligi Podsho Rossiyasiga qaram bo‘lgach, XIX asrning 80-yillarida Buxoroda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

- a) Sibir savdo bankining bo‘limlari, pochta-telegraf idorasi o‘z faoliyatini boshladi;
- b) Rossiya-Osiyo banki va Madiyor – Baqqolov kapitalini birlashtirgan “A-Meta” sindikati tashkil qilindi;
- c) Kogonda Yangi Buxoro temiryo‘l stansiyasi barpo etilib, amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham bunyod etildi;
- d) Ikkita paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasidagi ikkita mehmonxona qad rostladi.

Javob:		
Ball:		

**9.** XIX asrning 80-yillarida Xiva xonligining Rossiyaga qaramligini yanada kuchaytirgan javoblarni aniqlang.

- a) Kaspiyorti temiryo‘lining qurilishi;
- b) 5 kishidan iborat nazorat kengashining ta’ sis etilishi;
- c) Amudaryoning chap sohilida rus garnizonining joriy etilishi;
- d) Amudaryo flotiyasining tashkil etilishi.

Javob:		
Ball:		

**10.** 1910-yilda Xiva xoni tomonidan qabul qilingan “Islohotlar loyihasi” mazmuni to‘g‘ri berilgan javoblarni toping.

- a) Nozirlar kengashi bekor qilinib, o‘rniga Deputatlar palatasi tuzish taklifi berilgan;
- b) xon devoni saqlab qolinib, faqat amaldorlar davlat ta’minotiga o‘tkazilishi belgilangan;
- c) yangicha milliy maktablarni tashkil qilish g‘oyasi ilgari surilgan;
- d) davlat kirim-chiqimlarini nazorat qilish uchun moliya boshqarmasini tuzish fikri bayon qilingan.

Javob:		
Ball:		

### 12-savol

**1.** Xiva xoni Asfandiyorxonning yerlarni yangidan o‘lchashni buyurishiga mahalliy aholi qanday munosabat bildirdi?

- I. Aholi bu qarorga norozilik bildirib, soliq yukining oshishidan norozi bo‘ldi.
- II. Mahalliy aholi bu qarorni qo‘llab, soliqlardan ozod etilganini ma’qulladi.
- III. Aholi bu qarorni qo‘llab-quvvatlab, yangi yerlar ajratilishidan manfaatdor bo‘ldi.

Javob:	
Ball:	

**2. Fevral inqilobi Xiva xonligiga qanday ta'sir qildi?**

I. Fevral inqilobi Xiva xonligiga ta'sir ko'rsatmay, xonlikning siyosiy tizimi o'zgarishsiz qoldi.

II. Asfandiyorxon o'zining tayanchidan mahrum bo'lib, yosh xivaliklarga yon bosishga majbur bo'ldi.

III. Xon hokimiyatini yanada kuchaytirib, xonlikda islohotlar to'xtatilishiga sabab bo'ldi.

Javob:	
Ball:	

**3. XX asr boshida sharqshunos va arxeolog V. Vyatkinning arxeologik izlanishi Vatanimiz tarixi uchun qanday ahamiyat kasb etdi?**

I. Toshkent shahrining yoshi 2000 yildan ortiq ekanligini isbotlab berdi.

II. O'zbekistonda ilk shahar bronza davridan boshlab bunyod etilganligini Jarqo'ton manzilgohini tadqiq qilish orqali asoslab berdi.

III. Ulug'bek rasadxonasi binosi qoldiqlari va rasadxonaga tegishli asbob-uskunalarining bir qismini topishga muvassar bo'ldi.

Javob:	
Ball:	

**4. Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatida qanday o'ziga xos o'ringa ega?**

I. "Shuhrat" gazetasining muharriri sifatida Toshkentda yangi usul maktabiga asos soldi.

II. "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" sifatida teatr orqali ma'rifat g'oyalarini keng targ'ib etdi.

III. "Xurshid" gazetasiga asos solib, milliy matbuot rivojini yana bir pog'onaga ko'tardi.

Javob:	
Ball:	

**5. Podsho Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoning zabt etilishi, o'lka me'morchiligiga qanday ta'sir ko'rsatdi?**

I. Me'morchilik faqat qishloq uy-joylari bilan cheklanib, shaharsozlik rivojlanmadi.

II. Yangi qurilishlarda faqat yog'ochdan foydalanib, g'isht ishlatilmay qo'yildi.

III. Yevropa (rus) me'morchiligi unsurlari kirib kelib, an'anaviy me'morchilik bilan uyg'unlashdi.

Javob:	
Ball:	

**6. Ma'rifatparvarlar o'z g'oyalarini keng xalq ommasiga tez va samarali yetkazish uchun qaysi usuldan foydalanishgan?**

I. Nasr janri va milliy teatr orqali g'oyalarni targ'ib qilish.

II. Davlat farmonlari orqali majburiy tarzda g'oyalarni singdirish.

III. G'oyalarni faqat cheklangan tor doiradagi amaldorlar orqali tarqatish.

Javob:	
Ball:	

**7.** Toshkentda meteorologiya stansiyasining tashkil etilishi Turkiston ilm-fan sohasida qanday ta'sir ko'rsatdi?

- I. Meteorologik kuzatuvlar asosida shahar infratuzilmasini qurish va joylashtirish takomillashtirildi.
- II. Iqlim va ob-havoni ilmiy asosda o'rganish yo'lga qo'yilib, o'lka iqlimiga mos yangi paxta navlarining yaratilishiga turtki bo'ldi.
- III. Iqlim kuzatuvlari yo'lga qo'yilib, asosan temiryo'l qurilishi va uning yo'nalishlarini belgilashda qo'llanildi.

Javob:	
Ball:	

**8.** "Taraqqiy" gazetasining nashr etilishi jadidlar faoliyatining qaysi jihatini aks ettiradi?

- I. Gazeta faoliyatini faqat mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirishga yo'naltirish.
- II. Matbuot orqali faqat diniy qarashlarni mustahkamlash va targ'ib qilish.
- III. Ma'rifat va milliy ongni matbuot orqali targ'ib qilish.

Javob:	
Ball:	

**9.** Xiva xonligi bosh vaziri Islomxo'janing jadidchilik harakatidagi faoliyati nimasi bilan tavsiflanadi?

- I. Mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o'tkazilishini maqsad qilib qo'ydi.
- II. Ichki boshqaruvni kuchaytirib, tashqi aloqalardan voz kechish tarafdori edi.
- III. Faqat an'anaviy qadriyatlarni saqlash va yangiliklarni rad etishga qaratilgan faoliyat olib bordi.

Javob:	
Ball:	

**10.** Toshkentda tashkil etilgan birinchi rus-tuzem maktabi o'lka aholisi uchun qanday ahamiyat kasb etdi?

- I. Asosiy e'tiborni iqtisodiy kasb-hunarlarini o'rgatishga qaratib, ma'rifiy ta'sir ko'rsatmadi.
- II. Zamonaviy bilimlar berish bilan birga ruslashtirish siyosatini ham kuchaytirdi.
- III. Faqat diniy ta'limni chuqurlashtirish orqali aholining savodxonligini oshirdi.

Javob:	
Ball:	



### 13-savol

1. 1917-yilda Toshkentda tashkil etilgan “Fuqaho jamiyati” qanday maqsadda tashkil qilindi?

- a) madrasalarning xarajatini amlok mulki hisobidan qoplash;
- b) mustamlaka davrida shar’iy masalalarni hal qilish;
- c) hanafiylik mazhabini keyingi avlodga yetkazish;
- d) masjid imomlarini tayyorlaydigan maxsus markaz tashkil qilish.

Javob:		
Ball:		

2. Jadidlar fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Quyidagilardan ilgari surilgan siyosiy talablarni toping.

- a) mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish;
- b) Ittifoqi musulmin tarkibidan sovetlarni chiqarish;
- c) siyosiy mahbuslar jazo muddatini kamaytirish;
- d) o‘lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o‘tkazish.

Javob:		
Ball:		

3. Mustamlaka davrida Toshkentda meteorologiya stansiyasi tashkil qilinishidan qanday maqsad ko‘zlangan edi?

- a) olimlar jamiyatini shakllantirish;
- b) temiryo‘l stansiyalarini tashkil qilish;
- c) Turkiston hududini xaritalashtirish;
- d) o‘lka iqlimini o‘rganish.

Javob:		
Ball:		

4. Rossiyada yuz bergan fevral to‘ntarishi oqibatida davlatning siyosiy hayotida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?

- a) hokimiyat boshqaruvi muvaqqat hukumat qo‘liga o‘tdi;
- b) Romanovlar sulolasi hukmronligiga chek qo‘yildi;
- c) “Ittihodi va taraqqiy” partiyasi katta vakolatlariga ega bo‘ldi;
- d) Rossiya Dumasining mavqeyi mustahkamlandi.

Javob:		
Ball:		

5. 1917-yil 16-23-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan Butunturkiston musulmonlarining birinchi o‘lka qurultoyida qanday masalalar muhokama qilindi?

- a) Sovetlarning o‘lka boshqaruvidagi vakolatlarini kengaytirish masalasi ko‘rib chiqildi;
- b) o‘lkada musodara qilingan yerlarni mahalliy aholiga qaytarish bo‘yicha qaror qabul qilindi;
- c) Sho‘royi Islomiya bilan Sho‘royi Ulamo yagona Ittifoqi Musliminga birlashtirildi;

d) Turkiston musulmonlar Markaziy Sho‘rosini ta’ sis etishga kelishildi.

Javob:		
Ball:		

6. 1917-yil bahorida Buxoro bosh qozisi amirning mavjud tuzum asoslariga daxl qilmaydigan va xalqning ahvolini ko‘p ham o‘nglamaydigan farmonni o‘qib eshittirdi. Quyidagilardan ushbu farmonga mos keladigan to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- mamlakatda savdo va sanoatni rivojlantirish;
- kambag‘allar hayotini yaxshilash yo‘lida yirik zamindorlar yerlaridan foydalanishga ruxsat berish;
- kirim-chiqimlarni aniq hisoblab boruvchi byudjet belgilash;
- majburiy mehnatga jalb qilishni butunlay bekor qilish.

Javob:		
Ball:		

7. Fayzulla Xo‘jayev rahbarligida tashkil etilgan “Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi” bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- iste‘odli yoshlarni o‘z mablag‘i hisobidan chet elga o‘qishga yuborish bilan shug‘ullangan;
- 1920-yil Toshkentda tuzilgan bo‘lib, nufuzli siyosiy kuchlarni o‘zida mujassam eta olmagan;
- tarkibi to‘rt qozi va ular yonidagi muhrdor, a‘lam va muftiylardan iborat bo‘lgan;
- O‘rta Osiyoni zabt etgan bolsheviklarning kurash vositasiga aylangan.

Javob:		
Ball:		

8. Yosh xivaliklar Asfandiyorxondan islohotlar o‘tkazish to‘g‘risida manifestni imzolashni talab qilgan bo‘lib, quyidagilardan yosh xivaliklar talablariga mos javoblarni aniqlang.

- Turkiston musulmonlar Markaziy Sho‘roga qo‘yilgan ta‘qiqni bekor qilish;
- Xorazm kommunistik partiyasini tarqatib, sovetlarni xonlikdan haydab chiqarish;
- bolalarni bepul o‘qitish uchun xonlikning hamma joyida maktablar ochish;
- xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq boshqarishni butkul barham berish.

Javob:		
Ball:		

9. 1920-yil 27-30-aprel kunlari Xivada bo‘lib o‘tgan xalq vakillari Butunxorazm qurultoyida qanday masalalar muhokama qilindi?

- xonlik tugatilganligi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e‘lon qilindi;
- 15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar Kengashi saylandi;

c) Turkiston Xalq Komissarlari soveti tuzilib, unga Boboovun Salimov rais etib tayinlandi;

d) Yosh xivaliklarning "Islohotlar dasturi" qabul qilinib, xonlikning barcha hududlarida joriy qilish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Javob:		
Ball:		

**10.** 1917-yilda Muvaqqat hukumat tomonidan din bo'yicha ishlab chiqilgan yangi qonunga taalluqli bo'lgan to'g'ri javoblarni toping.

a) o'n besh yoshda har bir kishiga bir dindan ikkinchi dinga ko'chishi uchun biror ruxsat lozim emas;

b) to'qqiz yoshga yetmagan bolalar ota-onasining dinida, ota-onalari ikki e'tiqodda bo'lsa, otasining dinida deb hisoblanadi;

c) o'n sakkiz yoshga yetmagan bola ota-onasi ko'chgan dinga u ham ko'chgan hisoblanadi;

d) ota-onasi ma'lum bo'lmagan bolalar vasiylarning dinida deb hisoblanadi.

Javob:		
Ball:		

#### 14-savol

1. 1917-yildan boshlab Toshkentda faoliyat ko'rsata boshlagan "Fuqaho jamiyati" tashkil etilishiga qanday ehtiyoj bor edi?

I. Yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish ehtiyoji.

II. Milliy-diniy qadriyatlarni saqlash va shar'iy muammolarni tizimli ravishda hal qilish zarurati.

III. Jamiyatda faqat iqtisodiy muammolar, birinchi o'rinda, kasanachilikni rivojlantirish ehtiyoji.

Javob:	
Ball:	

2. Muhammad Rahimxon II ning Xudoybergan Devonovni o'z himoyasiga olishi o'lka san'ati sohasida qanday ta'sir ko'rsatdi?

I. Fotografiya san'ati rivojlanishiga sharoit yaratilib, yangi ijodiy yo'nalish shakllanishiga turtki bo'ldi.

II. Xonning bunday xatti-harakati diniy qarashlar ustunligi kuchaytirib, yangi san'at turlarining rivojini cheklab qo'ydi.

III. Fotografiya san'ati rivojlanib, an'anaviy san'at turlari, me'morchilikka kuchli zarba berdi.

Javob:	
Ball:	

3. O‘rta Osiyoda yer-suv islohotining amalga oshirilishi qishloq xo‘jaligida qanday o‘zgarishlarga olib keldi?

I. Qishloq xo‘jaligi butunlay to‘xtab, qishloq aholisi yoppasiga sanoatga o‘tishga majbur bo‘ldi.

II. Yirik yer egaligining mavqeyi mustahkamlanib, yerlarning asosiy qismi ularning qo‘lida jamlanib qoldi.

III. Yerlarni qayta taqsimlanishi natijasida dehqonlar xo‘jalik yuritishda faolroq ishtirok eta boshladi.

Javob:	
Ball:	

4. “Qo‘shchi” ittifoqining dehqonlar hayotidagi asosiy vazifasi nimadan iborat?

I. Dehqonlarni faqat mustaqil xo‘jalik yuritishga undab, har qanday jamoaviy faoliyatni rad etish.

II. Dehqonlarni g‘oyaviy jihatdan birlashtirib, ularni yangi siyosiy-iqtisodiy tizimga moslashtirish.

III. Qishloq xo‘jaligida an’anaviy tartiblarni saqlab qolib, islohotlarga qarshilikni kuchaytirish.

Javob:	
Ball:	

5. “Hujum” kompaniyasining tezlashtirilgan va mahalliy an’ana hamda qadriyatlarni hisobga olmagan holda olib borilishi qanday oqibatga olib keldi?

I. Jamiyatda keskin qarama-qarshiliklar kuchayib, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va fojiali hodisalar yuzaga keldi.

II. Ayollar huquqlari muammosiz hal qilinib, jamiyatda to‘liq ijtimoiy barqarorlik ta’minlandi.

III. “Hujum” kompaniyasi faqat ma’rifiy tadbir sifatida o‘tkazilib, majburiy choralar qo‘llanilmadi.

Javob:	
Ball:	

6. Anvar Poshshoning Sharqiy Buxorodagi sa’y-harakatlari bilan birlashgan qismlarning tashkil etilishi va g‘arbcha qo‘mondonlik uslubining joriy etilishi istiqloqlilik harakatiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

I. Mahalliy qo‘rboshilar o‘rtasida kelishmovchiliklarni kuchaytirib, istiqloqlilik harakatini zaiflashtirdi.

II. Harakatni faqat diplomatik yo‘l bilan olib borishga yo‘naltirib, qurolli kurashni chekladi.

III. Harbiy harakatlarni yaxshiroq rejalashtirish, kuchlarni birlashtirish va boshqaruvni kuchaytirishga yordam berdi.

Javob:	
Ball:	

7. Farg‘ona vodiysida istiqlolchilik harakatining kuchayib, Madaminbek boshchiligida Farg‘ona muvaqqat muxtoriyatining tuzilishi qanday siyosiy maqsadni ifodalaydi?

I. Sovet hokimiyati bilan kelishuvga erishib, qarshilik harakatini tugatishga qaratilgan siyosat.

II. Turkiston mustaqilligini ta‘minlash uchun markazlashgan muqobil boshqaruv tizimini yaratishga intilish.

III. Yirik yer egalarining manfaatini himoya qilib, kollektivlashtirishga qarshi kurash olib borish.

Javob:	
Ball:	

8. “Harbiy kommunizm” siyosatining Turkistonda amalga oshirilishi, o‘lka aholisi hayotiga qanday umumiy ta‘sir ko‘rsatdi?

I. Iqtisodiy resurslarning majburiy markazlashuvi natijasida aholi turmush darajasi pasayib, ochlik va ijtimoiy tanglik kuchaydi.

II. Bozor munosabatlari saqlanib qolgan holda davlat nazorati kuchaytirilib, iqtisodiy muvozanat ta‘minlandi.

III. Qishloq xo‘jaligida ortiqcha mahsulot ko‘payib, aholi oziq-ovqat bilan to‘liq ta‘minlandi.

Javob:	
Ball:	

9. 1918-yilda Turkiston muxtoriyatining harbiy kuch bilan tugatilishi va undan so‘ng “Tinchlik shartnomasi” orqali sovet hokimiyatini tan oldirishdan qanday siyosiy maqsad ko‘zlangan?

I. Turkiston Muxtoriyatini saqlab qolgan holda uni sovet tizimiga moslashtirish.

II. Mahalliy boshqaruvga organlariga to‘liq mustaqillik berib, markaziy nazoratni kamaytirish.

III. Harbiy kuch va siyosiy bosim orqali hududda sovet hokimiyatini majburan o‘rnatish va mustahkamlash.

Javob:	
Ball:	

10. 1917-yilda Xorazmda Yosh xivaliklar tashabbusi bilan konstitutsiyaviy monarxiya joriy etilib, Majlis tuzilgan bo‘lsa-da, qisqa muddatda uning harbiy yo‘l bilan tugatilishini qanday izohlash mumkin?

I. Islohotlar jamiyatdagi yetarli tayanchga ega bo‘lmagani sabab konservativ kuchlar tomonidan tezda bekor qilindi.

II. Asfandiyorxon Taxta shartnomasining imzolanishidan norozi bo‘lib, yosh xivaliklarga qarshi kurash olib bordi.

III. Yosh xivaliklarning Junaydxonga qarshi fitna uyushtirishi, xonni yosh xivaliklarga qarshi qilib qo‘ydi.

Javob:	
Ball:	

## 15-savol

1. XX asrning 20-yillarida qatag'onlik davrida o'ylab topilgan "Qosimovchilik" guruhi vakillariga qanday ayblar qo'yilgan?

- a) "bosmachilarni" qo'llab quvvatlash;
- b) o'zbek diviziyasini milliy lashtirish;
- c) O'zbekistonni SSR tarkibidan ajratib olish va mustaqil qilish;
- d) islom dinini himoya qilish.

Ball:		
Javob:		

2. XX asr qatag'onlikka uchragan "Milliy Ittihad" va "Milliy istiqlol" tashkilot a'zolari bilan bog'liq to'g'ri javoblarni aniqlang.

- a) mazkur guruhga O'zbekiston Oliy sudining sobiq prokurori Shamsutdin Badriddinov rahbarlik qilgan;
- b) 1929-yilda qamoqqa olingan bo'lsa-da, ular ustidan sud Moskvada 1931-yilda bo'lib o'tdi;
- c) guruh a'zolaridan 15 nafar o'zbek farzandi otib tashlandi, qamalganlardan deyarli hech kim Toshkentga qaytib kelmadi;
- d) ularga "aksilinqilobchi millatchi tashkilot" a'zolari bilan aloqa bog'lash, islom dinini himoya qilish kabi ayblovlar qo'yildi.

Ball:		
Javob:		

3. 1938-yil 10-oktyabrda M. Mirsharopovning otilishiga sabab bo'lgan ayblovlarni toping.

- a) "bosmachilarni" qo'llab quvvatlash;
- b) o'zbek diviziyasini milliy lashtirish;
- c) O'zbekistonni SSR tarkibidan ajratib olish va mustaqil qilish;
- d) islom dinini himoya qilish.

Ball:		
Javob:		

4. Quyidagilardan to'g'ri ma'lumotlarni toping.

- a) Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri Akromova turli millatga mansub 14 nafar bolani o'z tarbiyasiga oldi;
- b) urushda yarador bo'lib qaytgan kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov keyinchalik O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetiga boshchilik qildi;
- c) Samarqandlik Fotima Qosimova jasorat ko'rsatib, "Hujum" harakati davrida bir necha ayollarni o'limdan saqlab qoldi;
- d) Toshkentdan Moskvaga yuborilgan oziq-ovqat mahsulotlari orilgan eshelonning bir guruhiga frontda jang qilayotgan uch o'g'il otasi Hasan Islomov boshchilik qildi.

Ball:		
Javob:		

5. Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatgan o'zbek farzandlari bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni ajrating.

- a) Italiyadagi Qarshilik ko'rsatish harakati qatnashchisi Hoshim Ismoilovga qahramon maqomidagi "Vatanparvar guvohnomasi" berildi;
- b) Tojiboy Ziyayev Berlin operatsiyasida jasorat ko'rsatib, Oder daryosini birinchilardan kechib o'tdi;
- c) Xarkov viloyatidagi Trudolyubovka qishlog'i uchun jangda Qo'chqor Turdiyev dushmanga qarshi hujum uyushtirishda jasorat ko'rsatdi;
- d) snayperlikni o'rganib Leningrad yo'nalishidagi janglardan birida og'ir yarador bo'lgan Zebo G'aniyeva jami 129 fashistni yo'q qilgan edi.

Ball:		
Javob:		

6. Ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatgan o'zbek farzandlari bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni ajrating.

- a) Tojiali Boboyev Silez (Silizeya) vokzaliga birinchi bo'lib kirishga va bayroq o'rnatishga muvaffaq bo'ldi;
- b) Mixail Kabirov dushman zarbalari ostida 3 mingga yaqin minalarni zararsizlantirgani uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi;
- c) Kletskiy qishlog'i yaqinidagi tepaliklardan biri uchun jangda Samig' Abdullayev boshchiligidagi 11 kishi 300 nafar dushmanni yo'q qilishga muvaffaq bo'lgani uchun bu joyga "Sharqlik o'n bir qahramon tepaligi" nomi berildi;
- d) Karimjon Isoqov Gitler Germaniyasining bosh ramzi bo'lgan Reyxstag gumbaziga birinchi bo'lib bayroq o'rnatdi.

Ball:		
Javob:		

7. Quyidagilardan "Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy komissiyasi" bilan bog'liq to'g'ri javoblarni aniqlang.

- a) Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan 1925-yil martda o'z faoliyatini boshladi;
- b) 1926-yilda "Davlat apparati va sanoatni o'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi" deb o'zgartirildi;
- c) ushbu komissiyasining Samarqand, Zarafshon va boshqa viloyatlarda bo'limlari tashkil qilindi;
- d) O'zbekiston ilmiy tekshirish muassasalariga rahbarlik qiluvchi O'zbekiston SSR Fanlar komiteti tuzulishiga asos bo'ldi.

Ball:		
Javob:		

8. XX asrning 30-yillarida amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati davrida kolxozga kirmagan dehqonlarga nisbatan qanday chora-tadbirlar qo'llanilgan?

- a) davlat oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini taqsimlashni o'z qo'lga olgan;
- b) sanoat mollari bilan ta'minlanmaslik bilan qo'rqitilgan;

- c) dehqonlar majburiy mehnatga jalb qilinishi haqida ogohlantirilgan;  
d) katta soliq solish va yashash joyidan surgun qilish bilan do‘q qilishgan.

Ball:		
Javob:		

**9.** “Harbiy kommunizm”ning joriy etilishi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy sohasida qanday natija berdi?

- a) dehqonlar o‘zi yetishtirgan mahsulotning ortiqchasini davlatga topshirishga majbur bo‘ldi;  
b) yirik va o‘rta sanoat korxonalarini bilan birgalikda banklar, temiryo‘l transporti, bosmaxonalar davlat hisobiga o‘tkazildi;  
c) 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarga 12 soatgacha kunlik ish vaqti belgilandi;  
d) qishloq joylarida 11 yoshdan boshlab mehnat minimumi joriy etildi.

Ball:		
Javob:		

**10.** Yozuv islohoti bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni toping.

- a) 1921 – 1922-yillarda turkiy yozuv isloh qilinib, faqat mahalliy aholi o‘qiydigan maktablarda joriy qilindi;  
b) 1925-yilda Xalq Komissarlari Soveti II syezdida turkiy yozuvdan lotin grafikasiga o‘tish bo‘yicha ko‘rsatma berildi;  
c) 1929-yil 1-dekabrda O‘zbekistonda arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tildi;  
d) 1940-yil 8-mayda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida lotin yozuvidan kirill asosidagi o‘zbek yozuviga o‘tish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Ball:		
Javob:		

## 16-savollar

**1.** Zulfiya aya Zokirova timsolida yaratilgan «Matonat madhiyasi» obidasi qanday umumlashtirilgan g‘oyani ifodalaydi?

I. Urush davrini ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar orqali izohlashga ustuvor ahamiyat berish.

II. Urushda farzandlarini yo‘qotgan onalar matonati orqali milliy xotira va Vatan timsolini aks ettirish.

III. G‘alabani xalqaro siyosiy kuchlar o‘rtasidagi muvozanat natijasi sifatida talqin qilish.

Javob:	
Ball:	

**2.** Urush yillarida qamalda qolgan Leningrad shahrida joylashgan Ermitaj muzeyida Alisher Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan ilmiy anjuman o‘tkazilishi nimani ifodalaydi?



I. Og'ir sharoitda ham jamiyatda ma'naviy qadriyatlar va ilm-fan ahamiyati saqlanib qolishini

II. Urush davrida barcha madaniy tadbirlar harbiy harakatlardan ustun qo'yilishini

III. Ilmiy anjumanlar asosan moddiy manfaat va resurslarni taqsimlash bilan bog'liqligini

Javob:	
Ball:	

**3.** XX asrning 40-yillarida O'zbekiston SSRda ilm-fan rivojining yangi bosqichga ko'tarilganligini qaysi hodisa tasdiqlaydi?

I. O'zbekiston SSR Fanlar komitetining tuzilishi.

II. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining tashkil etilishi.

III. Chirchiq elektr kimyo kombinatining qad roslashi.

Javob:	
Ball:	

**4.** 1952-yil X plenumda ayrim o'zbek olimlari va adiblarining tanqid qilinishi hamda ularning qatag'on qilinishi nimadan dalolat beradi?

I. Ijodkorlar faoliyati davlatdan mustaqil bo'lganini

II. Siyosiy mafkura madaniyat va ilm-fanga salbiy ta'sir ko'rsatganini

III. Adabiy asarlar jamiyat uchun ahamiyatsiz bo'lganini

Javob:	
Ball:	

**5.** XX asrning 60-yillarida Sovet ittifoqida oziq-ovqat yetishmovchiligi kuzatilib, aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Bunday vaziyatda davlat qanday yo'l tutdi?

I. Oziq-ovqat narxlarini oshirib, chetdan g'alla sotib olish choralarini ko'rdi.

II. Oziq-ovqat narxlarini pasaytirib, ichki ishlab chiqarishni to'liq ta'minladi.

III. Aholi iste'molini cheklab, oziq-ovqat eksportini kengaytirdi.

Javob:	
Ball:	

**6.** O'zbekistonda kon-metallurgiya sanoatining rivojlanishi natijasida yopiq shaharlarning tashkil etilishi va ularning markazga bo'ysundirilishi nimani ifodalaydi?

I. Sanoati rivojlangan hududlar markaz tomonidan qattiq nazoratda ekanligi

II. Yirik sanoat shaharlarida korxonalar faoliyati to'liq ochiq tarzda ta'minlanganligi

III. Yirik sanoat hududlarida boshqaruv tizimi hududiy ehtiyojlarga mos ravishda shakllanganligi

Javob:	
--------	--

Ball:	
-------	--

**7.** 1980-yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan “Paxta ishi” jarayoni SSSRdagi qaysi holatni ochib berdi?

- I. Qishloq xo‘jaligida ilmiy-texnik yutuqlar keng joriy etilganini
- II. Davlat boshqaruvida korrupsiya va soxta hisobotlar keng tarqalganini
- III. Hududiy boshqaruv organlarining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari kengayganligini

Javob:	
Ball:	

**8.** 1991-yil Moskvadagi avgust voqealaridan keyin O‘zbekistonning mustaqillik sari intilish kuchayganligini qaysi o‘zgarish yaqqol ko‘rsatadi?

- I. Harbiy tuzilmalarning markazga to‘liq bo‘ysundirilishi
- II. SSSR markaziy boshqaruv organlarining vakolatlari kengaytirilishi
- III. Ichki ishlar va davlat xavfsizligi tizimlarining Respublika tasarrufiga o‘tishi

Javob:	
Ball:	

**9.** 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan hujjatlarning tarixiy ahamiyati nimada namoyon bo‘ldi?

- I. Respublika iqtisodiy jihatdan to‘liq markazga integratsiyalashdi.
- II. O‘zbekistonning milliy davlatchiligi tiklanib, mustaqil davlat sifatida shakllanishi boshladi.
- III. Davlat boshqaruv tizimi takomillashtirilib, markaz bilan hamkorlik mustahkamlandi.

Javob:	
Ball:	

**10.** XX asrning 60-yillarida O‘rta Osiyoda sug‘oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi qanday oqibatga olib keldi?

- I. Orol dengizida quyiladigan suv miqdori kamayib, uning quriy boshlashiga olib keldi.
- II. Paxta ekinining mahsuldorligi ortib, ekologik muammolar kamaydi.
- III. Daryolar oqimi barqarorlashib, suv taqsimoti yaxshilandi.

Javob:	
Ball:	

### 17-savol

1. Turkiston Muxtoriyati davrida yaratilgan zamonaviy ko‘rinishdagi ilk davlat madhiyasini yozgan muallifning taxallusini toping.

Javob:																				
Ball:																				

2. Asosiy g‘oyasi tenglik, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashdan iborat bo‘lgan O‘zbekistondagi ilk sotsial-demokratik partiya nomini aniqlang.

Javob:																				
Ball:																				

3. Qonun chiqaruvchi organ, ya’ni O‘zbekiston parlamenti dastlab qanday nom bilan faoliyat yuritgan?

Javob:																				
Ball:																				

4. Kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko‘magida hal qilish usuli qanday nomlanadi?

Javob:																				
Ball:																				

5. Jamiyatda ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishi qanday nomlanadi?

Javob:																				
Ball:																				

6. 2019-yilda mamlakatimizda bir necha turdagi yangi akademik litseylar tashkil qilinishi natijasida Samarqand bilan birga yana qaysi hududda “Temurbeklar maktabi”ning faoliyati tugatildi?

Javob:																				
Ball:																				

7. Hozirgi kunda jasorat ko‘rsatgan yoshlarga beriladigan mukofot nomini toping.

Javob:																				
Ball:																				

8. 2016-yilda ochilib, Farg‘ona vodiysini poytaxt bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lagan tunnel nomini yozing.

Javob:																				
Ball:																				

9. 1990-yil 24-mart kuni O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari sessiyasida qaysi lavozim joriy etildi?

Javob:																
Ball:																

**10.** Mamlakatimiz harbiy siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi hujjat qanday nomlanadi?

Javob:																
Ball:																

### 18-savol

**1.** 2017-yildan boshlab mamlakatimiz sud tizimida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

- sud qarorlarini ko‘rib chiqishda olti bosqichli tartibdan voz kechilib, uch bosqichli tizim joriy etildi;
- nazorat instansiyasi: xalqaro tashkilotlar tanqid qilgan nazorat bosqichi joriy qilindi;
- Oliy sudlar huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti faoliyati tugatildi;
- “bir sud – bir instansiya” tamoyili asosida har bir ish faqat tegishli instansiyaga ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi, bu esa takroriy ko‘rib chiqishlarni kamaytirdi.

Javob:		
Ball:		

**2.** 2022-yilda tashkil etilgan Konstitutsiyaviy komissiya bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- komissiya a‘zolari 16 kishidan iborat bo‘lib, qonunchilik palatasi tomonidan tayinlanadi;
- konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflarni yig‘adi va tahlil qiladi;
- yangi tahriridagi konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasiga qo‘yadi;
- komissiyaning vakolat muddati 2,5 yil bo‘lib, oshkoralik, kollegiallik prinsipi asosida faoliyat olib boradi

Javob:		
Ball:		

**3.** O‘zbekiston mustaqillikka erishgach o‘zining milliy xavfsizlik va hududiy yaxlitligini ta’minlash maqsadida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?

- Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik komiteti O‘zbekiston tasarrufiga o‘tdi;
- SSSRning O‘zbekistondagi harbiy qismlari Oliy sudga bo‘ysuntirildi;
- Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi;
- 1992-yildan boshlab turli harbiy okruglarda serjantlar tayyorlash maktablari ochildi;

Javob:		
Ball:		

4. Bugungi kunda DXX qaysi yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi?

- a) aholi huquqini ta‘minlash va jinoyatchilikni oldini olish;
- b) voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan yoshlar bilan ishlash;
- c) ichki va tashqi xavflarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- d) korrupsiya va boshqa xavfli jinoyatlarning oldini olish;

Javob:		
Ball:		

5. 1992-yilda “Yer to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra...

- a) mayda yer uchastkalari aholiga imtiyozli ravishda xususiylashtirib berildi;
- b) yerlar davlat mulki deb belgilandi;
- c) yerlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun 12 kishidan iborat maxsus komissiya tuzildi;
- d) dehqon va fermerlarga yerlarni uzoq muddatli ijara asosida ishlatish huquqi berildi.

Javob:		
Ball:		

6. Quyidagilardan Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish kafolatlari bilan bog‘liq to‘g‘ri javobni aniqlang.

- a) davlat ta‘lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta‘lim olish;
- b) davlat sport-sog‘lomlashtirish va madaniy-ma‘rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- c) yoshlarni sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalash uchun 150 o‘rinli “Nuroni” maskanida dam olish;
- d) bepul tibbiy xizmat, bepul umumiy o‘rta ta‘lim va majburiy oliy ta‘lim olish.

Javob:		
Ball:		

7. Mamlakatimizning barcha viloyatlarida tashkil etilgan “Do‘stlik uylari” bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- a) turli millat va elatlarning madaniyatini rivojlantirish maqsadida tashkil etildi;
- b) unda milliy madaniy markazlar faoliyat yuritib, davlat tomonidan moddiy qo‘llab-quvvatlandi;
- c) asosiy vazifasi ehtiyojmand oilalarni ro‘yxatga olish hisoblanib, ularga manzilli yordam ko‘rsatadi;
- d) og‘ir ahvolga tushib qolgan fuqarolarga individual yondashuv asosida yordam ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshiradi;

Javob:		
Ball:		

8. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika olimpiadasi bilan bog‘liq to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

- a) Olimpiada dunyoning 200 dan ortiq davlatidan 300 nafar talabgor qatnashib, birinchi o‘rin tojikistonlik talabaga nasib qildi;
- b) Islom hamkorlik tashkilotining Ostona sammitida Sh. Mirziyoyev ushbu tashabbusni ilgari surdi;
- c) mazkur olimpiada ilk bor 2018-yilda Urganchda talabalar o‘rtasida o‘tkazildi;
- d) Islom hamkorlik tashkilotning qaroriga binoan 27-oktyabr “Xalqaro olimpiadasi kuni” deb e’lon qilindi.

Javob:		
Ball:		

**9.** Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2018-yilda tashkil etilgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatiga nimalar kiradi?

- a) Chet eldagi o‘zbekistonlik mehnat migrantlarini ish bilan ta’minlash va ularni qayta joylashtirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish;
- b) Xorijiy investorlarni jalb etish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya loyihalarini moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish;
- c) chet ellarda faoliyat ko‘rsatayotgan salohiyatli olimlar, mutaxassislar va ekspertlarni O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga faol jalb etish;
- d) iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta’lim olish, yetakchi xalqaro institutlar va xorijiy tashkilotlarda malaka oshirish ishlarini tashkil etish.

Javob:		
Ball:		

**10.** 2008-yilda “Fidokorlar” partiyasining “Milliy tiklanish” partiyasi bilan birlashtirilishiga sabab nima?

- a) ikkala partiyaning g‘oyalari va maqsadlari bir-biriga o‘xshash bo‘lgani uchun;
- b) 1995-yilgi saylovlarda Fidokorlar partiyasi mag‘lubiyatga uchragach, o‘zini tarqatib yuborishdan ko‘ra “Milliy tiklanish”ga qo‘shilishni ma’qul deb topdi;
- c) mazkur partiyalarning birlashtirilishi asosan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va saylov kampaniyalarida tashkiliy xarajatlarni kamaytirish zarurati bilan bog‘liq;
- d) yagona va kuchliroq siyosiy partiya shakllantirish zarurati bo‘lgani uchun.

Javob:		
Ball:		

### 19-savol

1. Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.
  1. Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri binosi qayta ta’mirlandi.
  2. Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomi berildi.
  3. Toshkentda “Turkiston” san’at saroyi ish boshladi.

Javob:			
Ball:			

**2. Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.**

1. Yurtdoshlarimizning haj amalini ado etish uchun Saudiya Arabistoniga borish imkoniyati yaratildi.

2. Navro‘z bayrami insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida YUNESKO tomonidan e’tirof etildi.

3. Islom dini sohasida malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkent islom universiteti ochildi.

Javob:			
Ball:			

**3. Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.**

1. BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi asosida Markaziy Osiyo rasman yadro qurolidan xoli hudud deb e’lon qilindi.

2. Mamlakatimiz taklif va tashabbusi bilan Afg‘oniston muammosi bo‘yicha “6+2” muloqot guruhi tuzildi.

3. BMT tomonidan Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qilindi.

Javob:			
Ball:			

**4. Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.**

1. O‘zbekiston YUNESKO a’ziligiga qabul qilindi.

2. YUNESKONing Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi.

3. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi YUNESKO hamkorligida keng nishonlandi.

Javob:			
Ball:			

**5. Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.**

1. Dehlidagi Jamiya Milliy Islamiya universitetida o‘zbek tili va madaniyati markazi ochildi.

2. “KIA” kompaniyasi bilan hamkorlikda Jizzax viloyatida zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

3. Urganch shahrida “O‘zbek-turkman do‘stlik uyi” ochildi.

Javob:			
Ball:			

- 6.** Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.
1. Toshkentda La‘l Bahodir Shastri nomidagi hind madaniyati markazi tashkil etildi.
  2. Prezident SH.Mirziyoyevning AQShga birinchi rasmiy tashrifi bo‘lib o‘tdi.
  3. Vashingtonda O‘zbekiston elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi.

Javob:			
Ball:			

- 7.** Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.
1. Toshkentda “O‘zbekiston – Yaponiya” do‘stlik jamiyati ta‘sis etildi.
  2. O‘zbekistonda qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligi keng nishonladi.
  3. O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston prezidentlari Xo‘jand shahrida “Do‘stlik” stelasini tantanali ravishda ochdilar.

Javob:			
Ball:			

- 8.** Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.
1. O‘zbekistonda ilk bor “Turon” harbiy teatr studiyasi tashkil etildi.
  2. Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni tashkil etildi.
  3. BMT tomonidan 21-mart Xalqaro Navro‘z kuni deb e‘lon qilindi.

Javob:			
Ball:			

- 9.** Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.
1. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkentda “Yangi O‘zbekiston” bog‘i barpo etildi.
  2. “Jadid” deb nomlangan gazeta nashr etila boshlandi.
  3. Termiz shahri “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlandi.

Javob:	3	1	2
Ball:			

- 10.** Yurtimiz tarixi bilan bog‘liq ma‘lumotlarning xronologik ketma-ketligini toping.

1. Amir Temur tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi.
2. Respublika Ma‘naviyat targ‘iboti markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi alohida tashkilot sifatida ish boshladi.
3. Toshkentda O‘zbekiston xalqaro anjumanlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasini birlashtirgan “Ma‘rifat markazi” bunyod etildi.

Javob:			
Ball:			



## 20-savol

### 1. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. BMT	a) J.Neru ushbu tashkilotga nisbatan “insoniyat vijdoni” degan ta’rifni qo’llagan;
2. YUNESKO	b) O‘zbekiston ushbu tashkilotga 2001-yilda a’zo bo‘lgan; c) 10-iyunni Xalqaro sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot kuni deb e’lon qilish to‘g‘risidagi rezolyutsiya qabul qilindi; d) Minskda bo‘lib o‘tgan sammitda tashkilot nizomi qabul qilindi.

Javob:	1	2
Ball:		

### 2. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligi	a) mamlakatimizda tashkilotning 2015 – 2030-yillarga mo‘ljallangan “Barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturi faol amalga oshirilmoqda;
2. SHHT	b) O‘zbekiston mazkur tashkilotga 2019-yilda a’zo bo‘ldi; c) 2016-yil Toshkentdagi sammitda Hindiston va Pokistonning mazkur tashkilotga a’zo davlat maqomini olish bo‘yicha tegishli hujjatlar imzolandi; d) Olmaota deklaratsiyasiga binoan O‘zbekiston mazkur tashkilotga a’zo bo‘ldi.

Javob:	1	2
Ball:		

### 3. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. BMT	a) 2020-yilda O‘zbekiston mazkur tashkilotga raislik qildi;
2. YUNESKO	b) ushbu tashkilot bilan hamkorlikda Marg‘ilonda “Atlas bayrami” festivali tashkil etilmoqda; c) tashkilotning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Toshkent shahrida faoliyat yuritadi; d) 2018-yilda tashkilotning Orolbo‘yi mintaqasi uchun maxsus trest fondi tashkil etildi.

Javob:	1	2
Ball:		

### 4. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<p>1. MDH</p> <p>2. Turkiy davlatlar tashkiloti hamkorligi</p>	<p>a) mazkur tashkilotda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilib, dastlab ushbu mukofot Chingiz Aytmatovga berildi;</p> <p>b) 2021 – 2023-yillarda O'zbekiston ilk marotaba mazkur tashkilotning Inson huquqlari kengashining a'zosi bo'ldi;</p> <p>c) tashkilotning ayrim tuzilmalari Moskvada joylashgan;</p> <p>d) Ostona sammitida Hindiston va Pokiston tashkilotga rasman a'zo bo'ldilar.</p>
--	---

Javob:	1	2
Ball:		

5. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<p>1. YUNESKO</p> <p>2. SHHT</p>	<p>a) ushbu tashkilotning Toshkentda Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etildi;</p> <p>b) Samarqandda mazkur tashkilotning Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi;</p> <p>c) Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash rezolyutsiyani qabul qildi;</p> <p>d) tashkilotning bosh organi ijroiya qo'mitasi bo'lib, uning qarorgohi Minsk shahrida joylashgan.</p>
----------------------------------	---

Javob:	1	2
Ball:		

6. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<p>1. MDH</p> <p>2. SHHT</p>	<p>a) J.Neru ushbu tashkilotga nisbatan "insoniyat vijdoni" degan ta'rifni qo'llagan;</p> <p>b) O'zbekiston ushbu tashkilotga 2001-yilda a'zo bo'lgan;</p> <p>c) 10-iyunni Xalqaro sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot kuni deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi;</p> <p>d) Minskda bo'lib o'tgan sammitda tashkilot nizomi qabul qilindi.</p>
------------------------------	--

Javob:	1	2
Ball:		

7. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

<p>1. MDH</p>	<p>a) mamlakatimizda tashkilotning 2015 – 2030-yillarga mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" dasturi faol amalga oshirilmoqda;</p> <p>b) O'zbekiston mazkur tashkilotga 2019-yilda a'zo bo'ldi;</p>
---------------	--

2. BMT	c) 2016-yil Toshkentdagi sammitda Hindiston va Pokistonning mazkur tashkilotga a'zo davlat maqomini olish bo'yicha tegishli hujjatlar imzolandi; d) Olmaota deklaratsiyasiga binoan O'zbekiston mazkur tashkilotga a'zo bo'ldi.
--------	--

Javob:	1	2
Ball:		

8. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. MDH	a) 2020-yilda O'zbekiston mazkur tashkilotga raislik qildi; b) mazkur tashkilot bilan hamkorlikda Marg'ilonda "Atlas bayrami" festivali tashkil etilmoqda;
2. SHHT	c) tashkilotning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Toshkent shahrida faoliyat yuritadi; d) 2018-yilda tashkilotning Orolbo'yi mintaqasi uchun maxsus trest fondi tashkil etildi.

Javob:	1	2
Ball:		

9. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. BMT	a) mazkur tashkilotda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilib, dastlab ushbu mukofot Chingiz Aytmatovga berildi;
2. SHHT	b) 2021–2023-yillarda O'zbekiston ilk marotaba mazkur tashkilotning Inson huquqlari kengashining a'zosi bo'ldi; c) tashkilotning ayrim tuzilmalari Moskvada joylashgan; d) Ostona sammitida Hindiston va Pokiston tashkilotga rasman a'zo bo'ldilar.

Javob:	1	2
Ball:		

10. To'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1. MDH	a) ushbu tashkilotning Toshkentda Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etildi;
2. BMT	b) Samarqandda mazkur tashkilotning Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi; c) Markaziy va Janubiy Osiyoda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash rezolyutsiyani qabul qildi; d) tashkilotning bosh organi ijroiya qo'mitasi bo'lib, uning qarorgohi Minsk shahrida joylashgan.

Javob:	1	2
Ball:		